

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 94 (1155), 2024-yil 16-may, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



ZAMONAVIY XATAR VA TAHDIDLARGA QARSHI KURASHISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

15-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qaytganlarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish masalalari bo‘yicha Mintaqaviy ekspertlar kengashining birinchi yig‘ilishida ishtirok etish uchun mamlakatimizda bo‘lib turgan BMT Bosh kotibining o‘rinbosari — Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi rahbari Vladimir Voronkovni qabul qildi.



Uchrashuv avvalida Vladimir Voronkov davlatimiz rahbariga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrishning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekistonning BMT institutlari va tuzilmalari bilan, eng avvalo, terrorizm va boshqa transmilliy xatar va tahdidlarga qarshi kurash sohasidagi amaliy hamkorligini yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlagani uchun mamlakatimiz rahbariga minnatdorlik izhor etib, Vladimir Voronkov Mintaqaviy ekspertlar kengashini tashkil etish tashabbusi amalga oshirilgani uchun O‘zbekiston tomoniga alohida tashakkur bildirdi. Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan ushbu noyob mexanizmining birinchi yig‘ilishi muvaffaqiyatli yakunlangani ta’kidlandi.

BMT Bosh kotibining o‘rinbosari, shuningdek, O‘zbekistonning mojarolar hududlaridan fuqarolarni qaytarish, ularni reabilitatsiya qilish va jamiyatga qayta integ-

ratsiya qilish, jumladan, bunda mahalla institutining keng imkoniyatlari va salohiyatidan foydalanish bo‘yicha sa‘y-harakatlarini yuqori baholadi.

O‘zbekiston va BMT Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi o‘rtasidagi hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini nazarda tutuvchi 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan yangilangan “yo‘l xaritasi” imzolangan mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yoshlarni ekstremizm va terrorizm g‘oyalari buzg‘unchi ta’siridan himoya qilish, kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va BMT institutlarida yosh mutaxassislar uchun stajirovkalar tashkil etishga qaratilgan qo‘shma tadbirlarni o‘tkazish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Afg‘oniston masalasi yuzasidan fikr almashildi. Bu mamlakatdagi vaziyatga xalqaro e’tiborni kuchaytirish, afg‘on xalqiga gumanitar yordam ko‘rsatishni davom ettirish muhimligi ta’kidlandi.

O‘ZA

“COCA-COLA” KOMPANIYASINING ISTIQBOLLI LOYIHALARI QO‘LLAB-QUVVATLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-may kuni “Coca-Cola” kompaniyasi raisi va bosh direktori Jeyms Kuinsini qabul qildi. Uchrashuvda “Anadolu Group” kompaniyasi raisi Tunjay O‘zilxon ham ishtirok etdi.

“Coca-Cola” alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish bo‘yicha dunyodagi eng yirik kompaniyalardan biri bo‘lib, faoliyati 200 dan ortiq mamlakat bozorini qamrab oladi, 200 dan ziyod brend va 950 dan ortiq ishlab chiqarish korxonasiga ega.

Kompaniyaning O‘zbekistondagi ekskluziv hamkori — “Coca-Cola Içecek” Turkiyaning “Anadolu Group” tarkibiga kiradi. Hozirgi kunda mamlakatimizda kompaniyaning Toshkent, Urganch va Namangan viloyatidagi 3 ta zavodi faoliyat yuritmoqda.

Uchrashuvda oziq-ovqat sohasidagi, shu jumladan, “yashil” yechimlarni, energiya va suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha hamkorlikning ijobiy sur‘ati qayd etildi. Kuni kecha Samarqand viloyatida yangi korxonada ishga tushirildi. 2025-yilda Namangan viloyatida beshinchi zavod foydalanishga topshiriladi.

Innovatsion faoliyat va tadqiqotlarni rivojlantirish, muhandislar va soha mutaxassislarini tayyorlash muhimligi ta’kidlandi. Investitsiya dasturini yanada kengaytirish, mahsulot turini ko‘paytirish, materiallar va butlovchi qismlarni ishlab chiqarish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

Davlatimiz rahbari istiqbolli loyihalarni jadallik bilan amalga oshirish bo‘yicha alohida “yo‘l xaritasi”ni qabul qilishni topshirdi.

O‘ZA

Bandlik

MAQSADLI MEHNAT MIGRATSIYASI kafolatlangan ish va daromadni ta’minlaydi

May — talabaligimning yakuniy o‘quv yilidagi oxirgi oy. Uyimdakilarga o‘qishni tamomlab, Toshkentda ishda qolish qarorimni aytganimga shu kunlarda rosa 25 yil bo‘libdi. Esimda, otam rahmatli o‘shanda “Toshkangacha 300 chaqirim yo‘l bo‘lsa, bir kunlik yo‘l-a, bora-kela umring yo‘lda o‘tadimi?” degandi. Haqiqatan, o‘sha paytlar qishloqdan tong sahar yo‘lga chiqib, poytaxtga shom qorong‘usida yetib kelardik. Bugungi globallasuv, texnik taraqqiyot ta’sirini qarag: 300 chaqirim “bir qadam” bo‘ldi-qoldi. Hatto ayrim rivojlangan davlatlarda buncha masofaga ishga kunlik qatnab ishlaydiganlar ham topiladi.



Navbatdagi maqola — migratsiya mavzusi rejasini tuzar ekanman, birinchi bo‘lib negadir shu xotiralar yodimga keldi. Xayolimdan bugungi global mehnat migratsiyasi tobora masofa tanlamas bo‘lib borayotgani o‘tdi.

Mehnat migratsiyasining hozirgi rivojini ko‘pchilik globallasuv, zamonaviy taraqqiyot imkoniyatlari va rivojlangan davlatlarda ishchi kuchiga talab yuqoriligi bilan bog‘laydi. To‘g‘ri, bu omillar asosli. Lekin e’tibordan

chetda qolayotgan yana bir jihat bor. Bu keyingi paytlarda mehnat migratsiyasi masalasiga muammo emas, balki iqtisodiy chora sifatida qarash shakllangani va ommalashgani bilan bog‘liq. Boshqacha aytganda, bundan ham yuboruvchi, ham qabul qiluvchi davlatlar iqtisodiy manfaat ko‘rmoqda.

Bugun istalgan mamlakatda migratsiya masalasiga duch kelishimiz mumkin. Albatta, kimdir o‘qish, boshqasi tijorat yoki sayohat, yana birovlari ishlab mahsulotni dunyo kechib yuribdi.

Lekin mehnat migratsiyasining nozik jihati ham bor. Kimdir manziliga yeta olmay, mingan qayig‘i ummonga g‘arq bo‘ladi, ba’zilar odam savdosi qurboniga aylanaadi. O‘zimizning migrantlar bilan sodir bo‘layotgan fojialar haqida ham ko‘p ma’lumotlarni keltirish mumkin.

▶ Davomi 3-betda

Mulohaza

EL SIYLAGAN ESHIKDA O‘TIRMAS

O‘QITUVCHIGA EHTIROM DOIM TRENDDA BO‘LISHI KERAK

Milliy mentalitet, qiyofa va qarashlar xalqning o‘tmishidan darak berish bilan birga uning kelajagiga asos vazifasini o‘taydi. Ajdodlar qoldirgan ma’naviy meros, ular asrab-avaylagan an’ana va qadriyatlar shiddatkor davrning turfa g‘avg‘olaridan asrab turadigan muhim qo‘rg‘ondir. Insoniyatning bugungi qiyofasi kecha yoki bugun shakllanib qolgan yo‘q, balki eng qadimgi davrdan bugungacha qaysidir odatlari zamon g‘alviridan o‘tib, ba’zilar xuroftoga qarshi qurol sifatida shakllantirilgan.

Milliyigimizning muhim ustunlaridan biri hurmat-ehtiromdir. Nafaqat yoshi kattalar, balki kichiklarga ham birdek e’zozda bo‘lgan millatimiz. “Kattaga hurmatda, kichikka izzatda”, degan gaplar bejiz paydo bo‘lmagan.

Jamiyatning mezoni, qarashlari o‘zgarmoqda. Islohotlar nafasi yetib borgan chekka hududlarda ko‘ngillarni shukronalik

egallagan bo‘lsa, yana qaysidir jabhalarni keng va muhim o‘zgarishlar qamrab olgan. Millatning tub mezoni iqtisodiy yuksaklik bilan belgilanmaydi. Eng avvalo, tiyatida ma’naviy va milliy ruh qorishgan insonning bugunlik shukrini, kelajakning g‘amini yeydi.

▶ Davomi 5-betda

Dolzarb mavzu

IQLIM O‘ZGARISHLARI — GLOBAL TAHDID

Iqlim o‘zgarishi insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri bo‘lib qoldi. Bu borada vaqtida choralar qabul qilmaslik va atmosferada issiqxona gazlari miqdori ko‘payishining oldini olmaslik kutilmagan hamda bashorat qilib bo‘lmaydigan oqibatlar olib kelishi mumkin.

Bu bilan bog‘liq o‘zgarayotgan global tahdidlarga kompleks javob qaytarish maqsadida iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha Parij bitimi qabul qilindi. Kelishuvning asosiy maqsadlaridan biri sifatida rivojlangan davlatlar qatorida rivojlanayotgan

davlatlar ham chiqindilar miqdorini kamaytirish majburiyatini olishi belgilab qo‘yilgan.

Hujjatning asosiy muddaosi issiqxona gazlari tashlanmalarini sezilarli darajada kamaytirib, sayyoramizda global isishni

industrial rivojlanish davridagi o‘rtacha haroratga nisbatan Selsiy shkalasi bo‘yicha 1,5-2 daraja chegarasida ushlab turishga erishishdan iborat.

▶ Davomi 4-betda

Ta’lim taraqqiyoti

ILMIY SALOHIIYAT OSHAYOTGANI



sohaga qaratilayotgan e’tibor samarasidir

5



Kelajak kasblari

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Bugun sizga, ertaga mamlakatimizga foyda keltiradi

Yurtimizda axborot texnologiyalari va raqamli infratuzilmani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda, bu esa axborot xizmatlari va mahsulotlari eksportini oshirish, mamlakat iqtisodiy istiqbolini yaxshilash, sohada yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradi.

Nodirbek BARNOYEV,
IT ta'lim uyushmasi ijrochi direktori

Prezidentimiz 2023-yil 20-dekabr kuni Raqamli texnologiyalar vazirligiga tashrif buyurib, sohadagi natijalar va rejalar bilan tanishgan edi. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida qator vazifalar belgilanib, topshiriqlar berildi. Joriy yil 13-may kuni mazkur topshiriqlar ijrosi yuzasidan davlatimiz rahbariga raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, bu sohada yoshlarni va loyihalarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari bo'yicha axborot taqdim etildi.

Taqdimotda davlatimiz rahbari axborot texnologiyalari xizmatlari va eksportining asosiy ulushi Toshkent shahriga to'g'ri kelishini ta'kidlab, mutaxassislar 80 foizi markazda yashashini, sohani chekka hududlarda ham rivojlantirish uchun axborot texnologiyalari shaharchalari tashkil etish rejalarini bildirgan.

2017-yilda yurtimizda axborot texnologiyalari kompaniyalari soni 147 ta

bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda 2 mingga yaqinlashdi. Ularda 30 ming xodim yuqori daromadli ish bilan band. 70 mingdan ziyod yosh mazkur soha bilan mustaqil shug'ullanyapti. Joriy yilning o'tgan to'rt oyida sohadagi xizmatlar hajmi 20 foiz o'sdi, 200 million dollarlik eksport qilindi, 5 mingga ish o'rni yaratildi.

Eksport uchun eng asosiy resurs — malakali mutaxassislar

“O'zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq, mamlakatimizni mintaqaviy axborot texnologiyalari xabiga aylantirish borasida tizimli ishlar davom etmoqda. 2030-yilgacha raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini 5 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, 2030-yilga borib elektron hukumat xalqaro reytingida mamlakatimizni TOP-30 talikka olib chiqish, sohada 300 mingdan ortiq yuqori malakali mutaxassis tayyorlash bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilandi.

Taqdimotda shiddat bilan o'zgarayotgan davrda hamma sohaga axborot texnologiyalarini biladigan kadrlar kerakligi, bu sohada xizmatlar uchun ham, eksport uchun ham eng asosiy resurs malakali mutaxassislar ekani ta'kidlandi.

Axborot texnologiyalari yo'nalishidagi kompaniyalar uchun yurtimizda qulay sharoit mavjud. Agar xorij kompaniyasi O'zbekistonga kelsa, u soliqlardan ozod qilinadi. Shuningdek, mazkur kompaniya ishchilari ham kam miqdorda soliq to'laydi. Yana bir muhim jihati — bu yerda o'sib kelayotgan iqtidorli, salohiyatli yoshlar ko'p. Ular ham chet tillarni, ham axborot texnologiyalarini o'rgangan holda ulg'aymoqda. Bu esa xorij kompaniyalari uchun qulaylik yaratishi shubhasiz.

Yurtimiz yoshlarining bu boradagi bilim va ko'nikmalarini oshirishda AKT sohasida faoliyat yuritayotgan ta'lim tashkilotlari hamda xususiy o'quv markazlarining muhim o'rni bor. Shu bilan birga, bu yerda o'g'il-qizlarga berilayotgan ta'lim qanchalik talabga javob beradi, degan savol tug'ilishi tabiiy.

2022-yil 22-avgustda Prezidentimizning “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi ta'limni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan nodavlat notijorat

tashkilot shaklidagi IT ta'lim uyushmasi tashkil etildi. Uyushma oldiga qator vazifalar qo'yildi, uning ijrosi uchun barcha sharoitlar yaratildi.

AKT sohasida faoliyat yuritayotgan ta'lim tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash, global bozor talablarini inobatga oluvchi yagona ekotizimni shakllantirishga intellektual ko'mak berish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yagona sertifikatlash tizimini joriy etish oldimizga qo'yilgan ustuvor vazifalardir. Shuningdek, sohadagi xususiy o'quv markazlari reytingini shakllantirish va doimiy ravishda yuritib borish, axborot texnologiyalari ta'limini rivojlantirish uchun xorijdagi vatandoshlar tajribasidan foydalanish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish belgilangan.

Albatta, yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda uyushma tomonidan qator yo'nalishlar belgilab olindi. Masalan, yagona reytinglash tizimini o'z ichiga olib, ta'limni ma'lumotlar bazasini, o'quv metodikalari va bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar hamda ma'lumotlar almashinish yagona platformasini shakllantirish, tinglovchilar uchun shaffof reyting tizimini kuzatib borish imkonini yaratishdir.

Xususiy o'quv markazlarini reytinglash alohida metodikaga asoslanadi va 100

ballik tizim asosida baholanadi. Reytinglash metodikasi 3 bosqichdan iborat. Unda ishtirok etish orqali o'quv markazi barcha yo'nalishlari bo'yicha ayni damdagi o'z holatini bilib oladi. Reytinglash yakunida uyushma tomonidan har bir yo'nalish bo'yicha tavsiyalar taqdim etiladi. Eng yuqori natija ko'rsatgan xususiy o'quv markazlari mukofatlanadi.

G'oyalari loyihalarga aylansa...

Muayyan maqsadga erishish uchun aniq vazifalar va tadbirlarni amalga oshirish, g'oya va loyihalarni amaliyotga tatbiq etish soha rivojida muhim jarayondir. Shu ma'noda o'tgan qisqa muddat ichida bir necha loyihani amalga oshirdik. Masalan, o'tgan yili “Digital leadership” forumi, 35-xalqaro informatika olimpiadasi, “IESF Jahon Export 2023” chempionati, “ICTWEEK Uzbekistan 2023” xalqaro anjumani, “Google DevFest 2023 Tashkent” tadbiri, “IT Ladies Uzbekistan” loyihalarini o'tkazdik. Bundan tashqari, “ICTWEEK Uzbekistan 2023” xalqaro anjumani doirasida 6 ta xalqaro sammit, 5 ta xalqaro forum, O'zbekiston — Koreya biznes forumi, “ICT Expo” ko'rgazmalari tashkil etildi. Mazkur tadbirlarda 50 ta davlatdan 100 dan ortiq ekspert, 20 dan ortiq xorijiy OAV vakillari ishtirok etdi.

Ayni paytda UNICEF bilan hamkorlikda “GIGA-Accelerator Model” loyihasi

amalg oshirish ustida ishlayapmiz. Loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad uzoq hududlardagi mahalliy aholiga yuqori tezlikda internetga ulanishni ta'minlash uchun maktablardan HUB sifatida foydalanish va shu bilan internetga kirish imkoniyatini kengaytirishdir.

Bundan tashqari, “IT Ladies Uzbekistan” loyihasi orqali yurtimizdagi ayollarning sohadagi imkoniyatlarini kengaytirishni maqsad qilganmiz. Loyiha O'zbekiston axborot texnologiyalari sanoatidagi ayollarni qo'llab-quvvatlash va yordam berish, aholing bilim darajasini oshirish, sohaga doir biznesda investitsiya muhitini yaxshilash hamda ayollar o'rtasida targ'ib qilinish nazarda tutadi.

Joriy yilda “Sousera” axborot texnologiyalari onlayn kurslarini yo'lga qo'yimoqchimiz. “Sousera” dunyodagi eng yaxshi universitetlar va tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, hamma uchun onlayn kurslarni taklif etuvchi ta'lim platformasidir. Uning vazifasi an'anaviy o'qitish usulini o'zgartirib, dunyo bo'ylab millionlab talabalarga ta'lim berishdir. Mazkur platformadan 275 ta xalqaro universitet va kompaniyaning dasturlari asosida 10 mingdan ortiq professional kasbiy kurs o'rin olgan. Uyushma ushbu kurslardan foydalanuvchilarga qator imtiyozlarni taqdim etadi.

Oldimizga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun sharoit va imkoniyatlar yetarli. Biz faqatgina astoydil mehnat qilish orqali maqsadimizga erishishimiz, bildirilgan ishonchni oqlashimiz, zamonaviy texnologiyalar bilan tengma-teng qadam tashlashimiz lozim. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, har bir soha va hudud raqamli texnologiyalar bilan hamohang rivojlanmasa, mamlakat rivojlanmaydi.

Islohot odimlari

TOG'-KON SANOATI SURXONDARYONING DRAYVERIGA AYLANADI

Surxondaryo viloyati Hisor tog' tizmasi va uning tarmoqlari, ya'ni Boysuntog', Ko'hitangtog', Bobotog' bilan o'ralgan. Bu tog'lar, asosan, yuqori paleozoy va mezozoy davrlari jinslaridan, tekislik qismi esa to'rtlamchi davr yotqiziqilaridan tarkib topgan. Hovdovg', Kakaydi, Lalmikor, Amudaryobo'yi tekisliklarida neft, Sharg'un, Hisor, Boysun, Ko'hitang tog'lari etaklarida toshko'mir, Sangardak va Xondizda polimetall va boshqa foydali ma'danlar, Xo'jalkonda osh tuzi konlari borligi aniqlangan.

Keyingi yillarda geologiya sohasidagi islohotlar tog'-kon sanoatida ish samaradorligi oshirishga katta yordam bermog'ga. Infratuzilma rivojlantirilib, Surxondaryo tog'larida yangi konlar aniqlanmoqda. Mutaxassislar ko'ra, foydali qazilmalarning istiqbolidagi resursini ko'paytirish uchun 2030-yilga qadar 58 ming kvadrat kilometr maydonda geologiya-qidiruv ishlari amalga oshirilib, yurtimiz hududining tog' va tog'oldi maydonlari umumiy o'rganilganlik darajasi 78,4 foizga yetkazildi.

Surxondaryoda ham geologiya sohasida bajarilayotgan ishlar ko'lami salmoqli. Bundan atigi olti yil muqaddam, 2017-yilgacha davlat balansida viloyat hududida 77 ta foydali qazilma koni qayd etilgan. Sohadagi islohotlar hamda geologiya-qidiruv ishlari natijasida yana 1 ta qo'rg'oshin-rux va 28 ta noruda kon aniqlanib, jami konlar soni 106 taga yetkazildi. Ayni paytda 1 ta qo'rg'oshin-rux, 12 ta uglevodorod va 76 ta noruda kon 90 ta tadbirkorlik subyekti tomonidan o'zlashtirilmoqda.

Auksion savdolariga hozirgi kunga qadar 105 ta kon va istiqbolli maydon investorlarga taklif etilgan. Natijada ushbu loyihalarni o'zlashtirish uchun geologiya-qidiruv ishlariga 15 million dollardan ortiq investitsiya kiritilgan. Shuning natijasida 2500 dan ortiq ish o'rni yaratilishi ko'zda tutilgan. Ayni paytda esa yana 39 ta kon va istiqbolli uchastka auksion savdolarida turibdi. Bundan tashqari, qo'shimcha ravishda joriy yil yakuniga qadar talab yuqori bo'lgan yana 14 ta konni auksionga chiqarish rejalashtirilgan.

Joriy yilda ham geologiya-qidiruv ishlari dasturi doirasida Surxondaryo viloyatida 107,5 milliard so'mlik 15 ta geologik loyihani amalga oshirish maqsad qilingan. Ayni paytda

5 ming kvadrat kilometr maydonda hududiy geologik va 4 ming kvadrat kilometr maydonda kosmogeologik ishlar olib borilmoqda. Mazkur yumushga 27 ta maxsus texnika jalb etilgan. — deydi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi Yer qatidan foydalanish markazi direktori o'rinbosari Nurbek Haqberdiyev.

Sherobod tumanidagi Kampirtepa granit konida uch xil — qizil, qo'ng'ir va jigarrang granit, shuningdek, oq va ko'k rangli gabbro tosh mavjud. Korxonaning asosiy faoliyat turi ikkiga bo'linadi. Dastlab granit tosh qazib olinsa, 2-bosqichda ularga ishlov berilib, sifati qurilish mahsulotlari ishlab chiqariladi. Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, Yer qatidan foydalanish markazi “O'zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati mutaxassislari Surxondaryo viloyati dala ekspeditsiyasi bilan hamkorlikda yangi loyihalar ustida ish olib bormoqda.

“Kanford inert servis” korxonasi 2018-yil noyabr oyidan buyon faoliyat yuritib keladi. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan mazkur korxonada mahsulotlarni nafaqat ichki bozorga, balki eksportga yo'naltirish bo'yicha manzilli rejalar ishlab chiqilgan. Jamiyatda bugungi kunda 200 dan ortiq yosh ish bilan ta'minlangan.

Korxonamizning oylik granit tosh ishlab chiqarish quvvati 15 ming metri tashkil etadi. Geologlar bilan hamkorlikda ayni kunlarda Sherobod tumanidagi Sholqon qishlog'ida qidiruv ishlari olib boryapmiz. Viloyatda granit talabiga bo'lgan talab yiliga 30 ming kvadrat metri tashkil etishini inobatga olsak, yana qo'shimcha

quvvatga ehtiyoj yaqqol seziladi. Hozircha asosan, ichki bozorga mahsulot yetkazib beryapmiz. Kelajakda ko'lam yanada kengayadi, boisi, joriy yilning mart oyidan eksportga ham yo'l ochdik. — deydi “Kanford inert servis” bo'lim boshlig'i Yusuf Qurbonov. — Hozircha 10 turdagi mahsulot ishlab chiqaryapmiz. Ularning turini yanada oshirish niyatimiz bor.

Surxondaryo dala ekspeditsiyasi tomonidan ayni paytda maqsadli qidiruv ishlari olib borilmoqda. Sariosiyo, Oltinsoy, Qumqo'rg'on va Sherobodda aniqlanayotgan zaxiralari yangi sanoat quvvatlarini uchun zamin bo'ladi. 2023-yilda Sharg'un konida qazib chiqarishni yiliga 900 ming tonnagacha yetkazish bo'yicha modernizatsiyalash yakuniga yetkazildi.

Sariosiyo tumanida geologiya ishlarini jadallashtirish natijasida 2024-yilda zaxira 5 million tonnaga, 2025-yilda esa 13 million tonnaga ko'paytirilib, jami 18 million tonnaga yetkazilishi rejalashtirilgan. — deydi Yer qatidan foydalanish markazi direktori o'rinbosari Nurbek Haqberdiyev. — Shu bilan birga, viloyatdagi 6 ta ko'mir kon va kon uchastkasi tadbirkorlarga foydalanishga berildi. Bu boradagi ishlar ko'lami joriy yilda yanada kengaytirilmoqda.

Sohadagi yangi loyihalardan biri Sherobod tumanidagi kaliy tuzi koni negizida kaliyli mineral o'g'itlar ishlab chiqarish quvvatidir. U qishloq xo'jaligi sohasi uchun katta ahamiyatga ega loyiha.

Olmalik kon-metallurgiya kombinati joriy yilda Xondiza konining chuqur gorizontlarini o'zlashtirish bo'yicha 128,4 million dollarlik investitsiya loyihasi boshlab yubordi. Loyihani ishga tushirish orqali 2028-yil yakuniga qadar yiliga 650 ming tonna ma'danni qayta ishlab, 234,4 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha 15,8 million dollarlik mahsulot eksport qilishga erishiladi.

Yana bir gap. Tog'li Boysun nafaqat go'zal tabiati va osmono'par tog'lari, balki qazilma boyliklari bilan ham ma'lumu mashhur.



Boysundagi “Mustaqillikning 25 yilligi” gaz konining shundoqqina yonginasida yana bir zavod qad rostlayotir. Bu gaz koni aslida, bundan bir necha o'n yillar oldin, ya'ni sobiq ittifoq davrida topilgan. Biroq hudud tog'li ekani, infratuzilma yo'qligi, manziling murakkab geografik joylashuvi, topilgan gaz tarkibida oltingugurt miqdori ko'pligi va iqtisodiy omillar, ochiqroq aytganda, konni o'zlashtirishga salohiyat hamda mablag' bo'lmagan uchun ishlar to'xtab qolgan.

Sohaga qaratilayotgan e'tibor tufayli toqqa tutash adir bag'rida 62 kvadrat kilometr maydonda yangi kon hamda gazni qayta ishlovchi yirik korxonada bunyod etila boshladi. Davlat rahbari 2019-yil aprel oyida “Mustaqillikning 25 yilligi” gaz konida bo'lib, dastlabki qidiruv ishlari, gazni qayta ishlab zavodini qurish loyihasi bilan yaqindan tanishgandi. O'sha yilning o'zidayoq zavod qurilishiga start berildi. Loyihaning umumiy qiymati 2 milliard dollarni tashkil etadi. Hozirgi paytda qadar konni o'zlashtirish uchun 1 milliard 570 million AQSH dollariga teng xorijiy sarmoya jalb qilinib, 20 ta quduqda burg'ilash ishlari to'liq yakunlangan. Shuningdek, 11 ta gaz qudug'i muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazilgan. Natijada bir kunda 1380 metr kub gaz olish quvvati yuzaga keldi.

Loyiha doirasida realizatsiya qilingan mahsulot diametri 800 millimetrdan 9 kilometr dan ortiq gaz quvuri orqali Sho'tan-Sherobod magistral gaz tarmog'iga ulanadi, — deydi “Mustaqillikning 25 yilligi” gazni qayta ishlab zavodi bosh texnologisi Furqat Ergashev. — Zavod yurtimizdagi sakkizinchi gazni qayta ishlab majmuasi hisoblanib, Surxondaryodagi eng yirik sanoat korxonalaridan biridir. Loyihaning birinchi bosqichi 2024-yilning may oyida ishga tushirilishi rejalashtirilgan bo'lsa, 2025-yilda to'la quvvatga chiqadi.



“Mustaqillikning 25 yilligi” koni murakkab geologik tuzilishga ega, zich ohaktoshlardan iborat. Bundan tashqari, suv rezervuarining o'zi g'ayritabiiy darajada yuqori bosimga ega. Kondan olinadigan gaz miqdori 8 foizgacha vodorod sulfat hamda 12 foizgacha karbonat angidridga ega oltingugurtidan tashkil topgan. Bu esa qazib olingan mahsulotni chuqur qayta ishlashni talab etadi.

Korxonada ishga tushirilishi bilan yon atrofda yana ko'plab xizmat ko'rsatish markazlari paydo bo'ladi, — deydi mehnat faxriysi, shoir Temur Shukur. — Bu esa yana yuzlab yangi ish o'rni yaratilib, ko'plab oilalarning turmush farovonligi yaxshilanadi, degani. Avvallari viloyatda chet davlatlarga chiqib ketib ishlovchi eng ko'p mehnat migrantlari bizning tumaniga to'g'ri kelardi. Endi esa hammasi tubdan o'zgarayapti. Zavod qurilishi bilan bu yerda barcha infratuzilmaga ega butun bir shaharcha bunyod bo'ladi. Qilsa bo'lar ekan-ku!

Boysun ahli mavjud o'zgarishlarni bugun ana shunday e'tirof etmoqda. Surxondaryo viloyati juda ko'p yer osti va yer osti tabiiy boyliklariga ega bo'lishiga qaramay, uzoq yillar davomida uning tayyor sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi hisssasi juda past bo'lib qolayotgan edi.

— Avvallari zavod deyilisa, chamasi 40-50 yillar davomida odamlarning xayolida viloyatda ikkita korxonaga — Denov yog'moy zavodi va Sho'rchidagi un zavodi kelardi. Boshqa shunday ishlab chiqarish korxonasi yo'q edi, tasavvur ham qilish qiyin edi. Hozir bir yil tumanida, bo'lganida ham bir nechtadan shunday salohiyatli zavod ishlayapti, — deydi “Nuroni” jamg'armasi viloyat bo'limi rahbari, senator Orziqul Soatov. — Hatto Boysundek tog'li manzillarda ham bo'yi tog'lar bo'yilashgulik baland zavodlar qurilib, ishga tushirilyapti. Eng muhimi, ular konlar bilan bog'liq korxonalar. Yer osti foydali qazilmalari sanoat, energetika, qurilish kabi iqtisodiyotning muhim tarmoqlari rivojida alohida o'rinni egallaydi.

Keyingi yillarda viloyatda mahalliy sanoatning to'qimachilik, qurilish materiallari, charm, elektrotexnika, oziq-ovqat kabi sohalarda qiymati qariyb 6,3 trillion so'mlik 1100 ga yaqin loyiha ishga tushirildi. Natijada uch yilda viloyatda tayyor sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,2 barobar oshdi.

Hududlar bugun izchil tarzda rivojlanmoqda. Oldinda rejalar, imkoniyatlar hali ko'p. Xususan, 3 milliard 300 million dollarlik 4 ta yangi yirik sanoat loyihasi shakllantirilgan. Bular hisobiga viloyat iqtisodiyotiga yiliga 6,5 trillion so'm, byudjetiga 1,6 trillion so'm, eksportiga 100 million dollar qo'shiladi, 2 mingga yuqori daromadli ish o'rni ochiladi.

Bu esa aholi turmush darajasini yaxshilabgina qolmay, nafaqat voha, balki mamlakat iqtisodiyoti yuksalishiga, mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Sarvar TO'RAYEV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Bandlik

MAQSADLI MEHNAT MIGRATSIYASI

kafolatlangan ish va daromadni ta'minlaydi



Lutfulla SUVONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Bunday vaziyatda davlat qonunchilikni qayta ko'rib chiqishi, fuqarolarini himoyalash choralarini kuchaytirishi zarur bo'ladi.

Shunday bo'ldi ham. Xorijda o'qish, ishlash yoki biznes uchun ketayotgan fuqarolarimizga yaratib berilayotgan sharoitlar oldingi yillardagidan tubdan farq qiladi. Xususan, eng avvalo, noqonuniy mehnat migratsiyasi va odam savdosiga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, tashqi mehnat migratsiyasini diversifikatsiya qilish doirasida xorijiy davlatlar bilan yangi mehnat bozorlariga chiqish va mazkur yo'nalishdagi tartib-taomillarni soddalashtirish bo'yicha aloqalar kuchaydi. Tashqi mehnat migratsiyasini takomillashtirish, xorijda ishlayotgan fuqarolarga har tomonlama ko'mak ko'rsatish, vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot tizimi yo'lga qo'yildi. Migratsiyadan qaytgan yurtodoshlarimiz bandligini ta'minlash, ularga doimiy daromad manbaini yaratib berishga ham e'tibor kuchaydi.

Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda 2 million 400 ming kishi o'zini o'zi band qilgan. Endi ularning faoliyatini yanada kengaytirish, bosqichma-bosqich kichik biznesga o'tkazish, bozor topishiga ko'maklashish kun tartibidagi masalaga aylandi. Qolaversa, kasb-hunarga o'qitish orqali malakali kadrlar tayyorlash, migrantlarning xorijda olgan tajribasini mamlakatimizda qo'llashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bandlik va aholi daromadini oshirish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan. Shu maqsadda ko'plab iqtisodiy-ijtimoiy dasturlar amalga oshirilmoqda. Yangi-yangi loyihalar ishga tushirilmoqda. Tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilishga keng yo'l ochilgan. Barcha hududlarda Sayxunobod tajribasi amaliyotga keng tatbiq etilyapti.

Joriy yil 10-may kuni Prezidentimiz raisligida mahallalarda bandlikni ta'minlash va mehnat migratsiyasini tartibli tashkil etish choralarini muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishda qayd etilganidek, har bir mahallaga iqtisodiy kompleks tashkilotlari rahbarlari birlashtirilgan. Ular kambag'al oilalar bilan manzillashib, odamlarning daromadini oshirishga ko'maklashmoqda. Buning uchun arzon kreditlar, subsidiya va imtiyozlar yo'naltirilayapti. Agrosanoat mutaxassislari bilan birga aholi tomorqalarida sardaromad ekinlar

ekilyapti. Binobarin, bugungi murakkab vaziyatda odamlarni ishli va daromadli qilishning yagona yo'li ichki imkoniyatlarni to'la safarbar etishdir.

Fuqarolarni chet elda ishlashga tartibli va xavfsiz jo'natish, yurtimizga qaytganlarning bandligini ta'minlash ham muhim vazifalardan. Shu bois, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi faoliyati tubdan isloh qilinmoqda. Barcha hududlarda "Xorijda ish — mahalladan" tamoyili yo'lga qo'yilmoqda. Yetarli malakasi bo'lmagan fuqarolar kasb-hunarga qo'shimcha o'qitiladi, xorijlik ish beruvchilar talabiga qarab maqsadli tayyorlanadi. Shu asosda yaqin muddatlarda 150 ming kishi daromadi yuqori mamlakatlarga yuborilishi mo'ljallangan.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 4-apreldagi "Me'nat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida ham chet elda ishlash istagidagi bo'lgan fuqarolarga qulay shart-sharoitlar yaratish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilishga e'tibor qaratilgan.

Farmon bilan mehnat migrantlariga xorijiy tillarni o'rgatish va muayyan kasbga tayyorlash uchun zarur mablag' ajratish hamda moddiy qo'llab-quvvatlash borasida qator imtiyozlar yaratildi, — deydi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi Toshkent shahri filiali rahbari Hamza Abdullayev. — Xorijiy tillar va kasb o'rganish bo'yicha malaka imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirib, sertifikat olgan talabgorlarga bazaviy



asoslantirilgan hujjatlarni ilova qilgan holda ariza bilan murojaat etadi.

Me'nat migratsiyasidan qaytgan shaxslarga Sayxunobod tajribasi asosida tomorqada mahsulot yetishtirib, daromad olish uchun moliyaviy ko'mak beriladi hamda boshqa turdagi bandlik xizmatlari ko'rsatiladi.

Ushbu toifadagi yurtodoshlarimizni ishga olgan korxonaga har bir xodim uchun bir yil davomida Bandlikka ko'maklashish jamg'armasidan har oy 500 ming so'm subsidiya beriladi.

Yangiyo'l tumanidagi "Vatan" mahalla fuqarolar yig'ini yashovchi O'ktam G'afforov endigina 30 yoshni qarshilayapti. Shunday bo'lsa-da, bir necha yil umrini xorijda o'tkazdi. Afuski, uning shirin xayollari sarob bo'lib chiqdi.

— Nima bo'lganda ham o'z yurtimga, ota-onang bag'rida yashashga hech narsa yetmas ekan, — deydi O'ktam.

berildi. Shu paytgacha tomorqamizda dehqonchilik qilib keldim. Yaqinda menga o'xshagan yoshlarga yer ajratildi. Hozir o'sha yerda dehqonchilik qilyapman. Bo'sh paytlarimda qo'ni-qo'shni, mahallamizdagi tomorqalarni haydab beryapman. Kunlik 300-400 ming so'm daromadim bor. O'z yurtimda, ota-ona, qarindosh-urug'lar oldida yashab, yaxshigina daromad qilish mumkin ekan. Faqat bizdan hozirga harakat va mehnat talab qilinadi, xolos.

Tibbiy muassasalar migratsiyadan qaytgan shaxslar va ularning oila a'zolarini bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazishi belgilangan. Bu e'tibor ham ular uchun katta yordam.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda bu yil yana 2 million 400 ming kishi mehnat bozoriga kirib keladi.

Namangan viloyati Uychi tumanidagi xorijda ishga ketgan yetti yarim mingga yaqin mehnat migrantidan 5 mingdan ortig'i oilasi bag'riga qaytib kelgan. Ulardan 4600 nafarining bandligi ta'minlangan. Ayni paytda tumanda mavjud 56 ta

fuqarolar toifalandi. Bunda asosiy e'tibor mehnat migrantlarining qonuniy shartnoma, kasbiy malakaga egaligi va xorijiy tillarni bilishiga qaratildi.

Uychi tumanidagi Ahillik mahallasida yashovchi Abdulla Mirzakamolov ham Rossiyada bir necha yil ishlash, 2023-yil dekabrda qaytib kelgan.

U mahalladagi yoshlar yetakchisi ko'magi va tavsiyasi bilan bo'sh turgan binoni olib, oziq-ovqat shoxobchasi ochdi. Endi u tadbirkor. Daromadi ham yomon emas. Eng muhimi, uch tengdoshini doimiy ish bilan ta'minladi.

— Rossiyada qurilish sohasida ikki yilga yaqin ishladim, — deydi Abdulla. — Yurtimizda yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar haqida eshitib, ko'rib yurardim. Qaytishga qaror qildim va mahallamizdagi yoshlar yetakchisidan kerakli tavsiyalar oldim. Shundan keyin imtiyozli kredit olib, oziq-ovqat mahsulotlari shoxobchasini ishga tushirdim. Albatta, bu bilan to'xtab qolmaymiz, faoliyatni yanada kengaytirish niyatim bor. Uzoqning qurug'idan yaqinining somoni yaxshi, deydi xalqimiz. Buning ma'nosini endi tushunib yetgandayman. Yoshlikka xos tez boyib ketish orzusida xorijga ketgandim. To'g'risini aytaman, o'zimdanda ortirib ota-onamga tuzukroq pul ham jo'natolmadim. Ikki yil umrim begona yurtda o'tdi. Mana, o'zimizda ishlayman, degan yoshlarga zo'r imkoniyatlar berilyapti. Puling bo'lmasa, davlat pul beryapti. Moddiy jihatdan o'zinni ancha tiklab oldim. Eng asosiyi, ota-onamning oldidaman. Ularga xizmat qilib, duosini olayman.

Bugun qaysi fuqaroning nima ish bilan bandligini mahalladan ko'ra yaxshiroq biladigan tuzilma yo'q. Shu inobatda olinib, bundan buyon "Xorijda ish — mahalladan" tamoyili yo'lga qo'yiladi. "Mahalla yetilgisi" tomonidan mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni xatlovdan o'tkazish va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etish bo'yicha yo'riqnomaga va namunaviy so'rovnoma shakli ishlab chiqilib, har bir mahallaga yetkazib beriladi.

Bunda "Xorijda ish" mehnat migratsiyasi elektron dasturiy majmuasi va "Bandlik xizmati" axborot tizimi "Onlayn mahalla" elektron

platformasi bilan integratsiya qilinadi. Bu hokim yordamchilari uchun juda katta imkoniyat. Endi hokim yordamchilari mazkur platforma orqali milliy vakansiyalar bazasidagi va xorijiy ish beruvchilarda mavjud bo'sh ish o'rinlari hamda ularga qo'yilgan talablar to'g'risidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida elektron tarzda olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, xorijda ishlash istagidagi fuqaro aniqlanib, mazkur platformaga kiritiladi. Shundan keyingina nomzodlar xorijdagi ish beruvchilar tanlovlariga jalb qilinadi.

Me'nat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarga reintegratsiya yordami ko'rsatilishi va rasmiy bandligi ta'minlanishi hokim yordamchilari faoliyatining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)dan biri etib belgilandi. Ana shunga qarab ularning ishiga baho beriladi.

Shu o'rinda mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslar, deganda kimlar nazarda tutilishiga aniqlik kiritib o'tish zarur. Bu toifaga xorijda uch oy va undan ortiq vaqt mobaynida mehnat faoliyati bilan shug'ullanib, yashash manziliga qaytib kelganiga bir yildan ko'p vaqt bo'lmaganlar kiradi.


— Mahallamizda ko'pchilik tomorqasida ko'chachilik bilan shug'ullanib keladi, — deydi noronlik Ma'murjon Sotimov. — Bilasizmi, eng avvalo, odamda ishtiyoq bo'lishi kerak. Men ham mana shu mahallada tug'ildim, voyvaga yetdim. Lekin mahallamizda bo'layotgan ishlarga uyg' qo'z bilan qaramabman. Ko'zim mehnat migrantini ko'rganimda ochildi. Til va kasb malakasidan qiynaldim. Kim bo'lsang ham, qayerda bo'lsang ham intilgan, harakat qilgan odam yutarkan. Xorijdan olgan xulosam shu bo'ldiki, biror hunarni puxta egallash kerak. Shu asosda ko'chachilik sirlarini o'rgandim. Daraxt o'zimizdan chiqadi, ko'chatini ekib, to daraxt bo'lguncha parvarish qilamiz. Keyin kesib, turli o'lchamdagi yog'ochlar tayyorlab beryapmiz. Terakning asos, "O'zbekiston" naviga talab yuqori. Mahsulotlarimizni mavsumga qarab nafaqat viloyat, balki yurtimizning boshqa hududlaridan ham kelib olib ketishadi. Birgina semizimning o'zida 15-20 qishloqdoshim ishli bo'ldi. Qishlog'imizda 40-50 tacha shunday sex bor. Mahallamizdan xorijdan qaytgan ko'plab yoshlar mana shu korxonalarda ishlab, yaxshigina daromad topyapti.

Yaqin ikki uchi bo'lgani kabi xorijga borib ishlashning ham o'ziga yarasha mashaqqati va foydasi bor. Bir qahramonimiz xorijda kasb o'rganib, qishlog'ida tadbirkorlikka qo'l urgan bo'lsa, yana biri mo'maygina pul ishlash u yoqda tursin, turli qiyinchiliklar girdobida yurtimizga qaytgan. Buning sababi esa xorijda ish uchun tavakkalchilik asosida mustaqil chiqqani yoki bugungi mehnat bozorida talabgir bo'lgan kasbi yo'qligida.

Yurtimizda mehnat migratsiyasi sohasida yaratilgan sharoitlar tag zamirida juda katta maqsad mujassam. Xususan, endi kasbiy malakasi yo'q va tilni bilmaydigan fuqarolarni kasbga o'qitish va profa'lim muassasalarida maqsadli tayyorlash kengaytirildi. Ana shu maqsadda Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi huzurida fuqarolarni xorijiy tillarga o'rgatish va ishlashga maqsadli tayyorlash markazi ochiladi.

Bu esa, o'z navbatida, tom ma'noda xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish, qaytib kelgan mehnat muhojirlarini har jihatdan qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tayoqning ikki uchi bo'lgani kabi xorijga borib ishlashning ham o'ziga yarasha mashaqqati va foydasi bor. Bir qahramonimiz xorijda kasb o'rganib, qishlog'ida tadbirkorlikka qo'l urgan bo'lsa, yana biri mo'maygina pul ishlash u yoqda tursin, turli qiyinchiliklar girdobida yurtimizga qaytgan. Buning sababi esa xorijda ish uchun tavakkalchilik asosida mustaqil chiqqani yoki bugungi mehnat bozorida talabgir bo'lgan kasbi yo'qligida.



— Afuski, ba'zilarining gapiga kirib bir necha yillik umrim, yoshligim besamar o'tdi. Ota-onamning gapiga kirsam bo'larkan. Yurtimizda yoshlarga shuncha sharoit yaratib berilayotganiga qaramay, ko'p pul topish maqsadida xorijga ketdim. Pul-ku topolmadim, lekin u yerda ko'rgan azoblarim har umrlik sahoq bo'ldi. Mahallamiz yoshlar yetakchisi maslahati bilan ortga qaytdim. Uyg'a kelganimdan keyin motokultivator olib

mahallada 232 mingdan ortiq kishi istiqomat qiladi. Prezidentimizning shu yil 25-26-mart kunlari Namangan viloyatiga tashrifi chog'ida tumanni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish, kambag'allikni qisqartirish, ayniqsa, xorijiy davlatlarda ishlash qaytgan fuqarolarni ish bilan ta'minlash, daromadli qilish borasida qator vazifalar belgilangan edi. Ana shu maqsadda mutasaddilar tomonidan, birinchi galda, xorijda mehnat qilayotgan

O'zbekiston tashabbuslari — amalda

"MEHR" AMALIYOTI — INSONPARVARLIK NAMUNASI



Anvar EMINOV, Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi eksperti

BMT ma'lumotlariga ko'ra, Suriya va Iroqda qurolli mojarolar boshlanganidan buyon o'tgan davrda 60 dan ortiq mamlakatning 50 mingga yaqin aholisi "Islom davlati" va boshqa xalqaro terrorchilik guruhlarga qo'shilish uchun jalb qilingan.

fuqarosi qolib ketmoqda. Gumanitar vaziyat o'ta murakkab bo'lgan bunday joylarda qolishga majburlarning ko'pi ayollar va bolalar ekani juda achinarli. BMT ekspertlari ta'kidicha, ular mutasill majburiy mehnatga jalb qilingan, zo'rvonlik va shafqatsiz muomalaga uchragan.

Shu sababli ham xalqaro hamjamiyat mazkur masalaga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. O'tgan davrda bu yo'nalishda BMTning bir nechta maxsus rezolyutsiyasi qabul qilingan. Bu hujjatlarda terrorchilik guruhi faoliyatiga ishtirok etgan xorijlik jangarilar va oila a'zolarini huquqiy ta'qib etish, o'z yurtiga qaytarish, reabilitatsiya qilish va qayta jamiyatga qo'shishga qaratilgan xalqaro huquq normalariga mos maxsus kompleks

strategiyalar, harakat dasturlarini ishlab chiqish tavsiya qilingan.

Markaziy Osiyo davlatlari bunday vaziyatga duch kelgan fuqarolarini qaytarish va jamiyatga qo'shish, oilalarini tiklash borasida sezilarli ijobiy natijaga erishdi. Jumladan, 2024-yil mart oyi holatiga ko'ra, mintaqamizning 2100 dan ortiq fuqarosi maxsus insonparvarlik amaliyoti natijasida o'z yurtiga qaytarilgan.

O'zbekiston o'z fuqarolarini Suriya, Iroq va Afg'onistonda repatriatsiya qilishga jiddiy kirishgan davlatlardan. 2019-yildan buyon 5 bosqichdagi "Mehr" insonparvarlik amaliyoti doirasidagi ishlar natijasida asosan, ayollar va bolalardan iborat 531 fuqaro qaytarib kelingan.

Asosiy qismi ayollar va bolalardan iborat shaxslar BMT hujjatlarida tavsiya qilingan tartibda ko'chirilganidan so'ng tegishli reabilitatsiya jarayonini o'tagan. Shundan keyin ularni oilasi bag'riga qaytarish va jamiyatga qo'shishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ko'rilgan. Ularning tibbiy va ijtimoiy xizmatlardan foydalanishi, bolalarning bog'chaga joylanishi va maktabga qatnashi uchun imkoniyat yaratilgan. Shu bilan birga, qaytarib kelingan ko'plab shaxslarga manzilli ijtimoiy ko'mak berilgan. Xususiy tadbirkorlikni boshlash uchun mablag', oliy o'quv yurtlarida o'qishi uchun ta'lim krediti ajratilgan.

Xalqaro huquqda har bir davlat o'z fuqarolari qayerda bo'lishi, sodir etgan huquqbuzarligi yoki jinoyatidan qat'i nazar, huquqlarini himoya qilish majburiyati belgilangan. O'zbekiston qurolli mojarolar hududiga borib qolgan fuqarolariga,

birinchi navbatda, jabrlanuvchi va qurbonlar sifatida qarashi, "Mehr" amaliyoti doirasidagi chora-tadbirlar insonparvarlik namunasi sifatida ifodalaniishi, ommaviy axborot vositalarida ham shu tarzda yoritilishi qaytarilgan shaxslarning jamiyatda o'z o'rini topishiga ko'maklashmoqda.

BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 2021-yil iyuldagi 47-sessiyasida O'zbekistonning o'z fuqarolarini qurolli mojarolar hududidan qaytarish dasturi va sohadagi ijobiy ishlar hozirgacha fuqarolari Suriya va Iroq singari hududlarda qochqin maqomida bo'lgan boshqa davlatlar uchun namuna sifatida xizmat qilishi mumkinligi e'tirof etilgan edi.

BMTning maxsus ma'ruzachisi Fionnuala Ni Aolain ham 2021-yil noyabr-dekabr oylarida O'zbekistonga safari yakuni munosabati bilan o'tkazilgan matbuot anjumanida bu fikrga qo'shilgan. Yuzlab ayol va bolalarni Suriya,

Iroq hamda Afg'onistondagi jang maydonidan olib chiqish va reintegratsiya qilish bo'yicha O'zbekistonda bajarilgan "Mehr" amaliyotiga yuqori baho bergan. Xalqaro mutaxassis "Oila birligi va jamiyatni qo'llab-quvvatlashga asoslangan o'zbek modeli repatriatsiya qilish, bola manfaatlarini himoyalash, qaytarilgan ayollarni samarali reintegratsiya qilish bo'yicha eng yaxshi amaliyot namunasi", deb ta'kidlagan.

Shu ma'noda 14-may kuni Toshkentda bo'lib o'tgan Qurolli mojaralar hududlaridan qaytarilganlarni reabilitatsiya va reintegratsiya masalalari bo'yicha Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekspertlar kengashining birinchi yig'ilishi ko'pchilikning diqqatini tortmoqda.

Tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti, Davlat xavfsizlik xizmati, Tashqi ishlar vazirligi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, BMTning Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya mintaqaviy markazi singari nufuzli xalqaro tashkilotlar hamkorligida o'tkazilgan.

Prezidentimizning tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur Mintaqaviy kengash Markaziy Osiyo davlatlari uchun umumiy bo'lgan dolzarb muammolarni hal etishda mintaqaviy va xalqaro hamkorlikning rivojlanishiga xizmat qiladigan o'ziga xos tahliliy markaz va amaliy harakatlar maydoni bo'lib qoladi.

Mutaxassislar fikricha, agar bu amalga oshirilmasa, sayyoramiz yildan yilga keskin iqlim o'zgarishlariga duchor bo'ladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2030-yilga kelib, atmosferaga chiqarilayotgan tashlanmalarning umumiy miqdori 55 gigatonnani tashkil etishi ehtimoli bor. Haroratni Selsiy shkalasi bo'yicha 1,5-2 daraja chegarasida ushlab turish uchun umumiy tashlanmalar miqdori 40 gigatonnadan ortiq bo'lmashligi shart.



Dolzarb mavzu

IQLIM O'ZGARISHLARI — GLOBAL TAHDID



Xayrullo G'AFFOROV,
Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi
Spikeri o'rinbosari

Boshlanishi 1-betda

Mutaxassislar fikricha, agar bu amalga oshirilmasa, sayyoramiz yildan yilga keskin iqlim o'zgarishlariga duchor bo'ladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2030-yilga kelib, atmosferaga chiqarilayotgan tashlanmalarning umumiy miqdori 55 gigatonnani tashkil etishi ehtimoli bor. Haroratni Selsiy shkalasi bo'yicha 1,5-2 daraja chegarasida ushlab turish uchun umumiy tashlanmalar miqdori 40 gigatonnadan ortiq bo'lmashligi shart.

2017-yil 19-aprelda BMTning Nyu-Yorkdagi Bosh qarorgohida O'zbekiston Parij bitimini imzoladi. Bitimni imzolash uchun BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli konvensiyasi kotibiyatiga issiqxona gazlari tashlanmalaridagi milliy miqdor belgilanadigan hissanani kamaytirish to'g'risida hujjat taqdim etildi.

Mazkur bitim 2018-yil 3-oktabrda ratifikatsiya qilindi. 2030-yilgacha uzoq muddatli istiqbolida O'zbekiston Respublikasi iqlim o'zgarishiga qarshi kurash chora va harakatlarni kuchaytirishni — 2030-yilga kelib issiqxona gazlari solishtirma tashlanmalarini 2010-yildagi darajaga nisbatan yalpi ichki mahsulot birligiga 10 foiz qisqartirishni rejalashtirgan edi. BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli konvensiyasining 2021-yil noyabr oyida Glazgo shahrida o'tkazilgan 26-yig'ilishida milliy delegatsiyamiz tomonidan bu ko'rsatkich 35 foizgacha belgilangan ma'lum qilindi.

Mutaxassislar fikri hamda tahlillarga asoslangan holda iqlim o'zgarishlarining oldini olish va unga moslashish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

— issiqxona gazlarini kamaytirish. Buning uchun, birinchi navbatda, ishlab chiqarish korxonalarini, IES va atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar chiqaruvchi boshqa tashkilotlarda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali atmosferaga tashlanayotgan issiqxona gazlari miqdorini kamaytirish zarur;

— yoqilg'i sifatini yanada yaxshilash hamda ekologik toza transport vositalarini ko'paytirish, jumladan, keng jamoatchilik uchun qulay bo'lgan veloyol'akchalar tashkil etish issiqxona gazlari miqdorini kamaytiradi;

— ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish. Ya'ni tabiiy drenaj hisoblangan ko'p yillik daraxtlar ekilishi hududagi mikroiklimni yumshatishga sabab bo'ladi. Shuningdek, ko'kalamzorlashtirilgan, ayniqsa, shahar va avtomobil yo'llari chetida yashil hududlarni kengaytirish zararli moddalar miqdori kamayishiga xizmat qiladi;

— suvdan oqilona foydalanish. Tomchilatib sug'orishni tashkil etish, suv resurslaridan samarali foydalanish ham iqlim o'zgarishlariga moslashish uchun turki bo'ladi;

— "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, ya'ni chiqindisiz, energiyatejamkor, resurstejamkor, kam chiqindili texnologiyalardan foydalanishni yoki boshqacha aytganda, "yashil" iqtisodiyotni joriy etish zarur;

— qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish. Chunki quyosh, shamol energiyalaridan foydalanishni rivojlantirish, atmosferaga issiqxona gazlari chiqarilishining oldini olish orqali iqlim o'zgarishlari oqibatlarini muayyan darajada kamaytirish mumkin.

Iqlim o'zgarishlari oqibatlarini barchamiz his qilib turibmiz. Haroratning keskin o'tishi, qum bo'ronlari yuzaga kelishi, havo ifloslanishi,

fuqarolarning ekologik huquqlari kafolatlanadi. Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lishi huquqi mustahkamlab qo'yildi. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlashi hamda atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishi qat'iy belgilandi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lidagi mintaqaviy birlamlikni

iqtisodiyotga o'tish strategiyasi amaliyotga joriy etildi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan qator vazifalar ham mamlakatimizda iqlim o'zgarishlarining oldini olish hamda unga moslashishga qaratilgan.

Ikkinchidan, BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Hadli konvensiyasi doirasida 2023-yil 30-noyabrdan 12-dekabr qadar BAAning Dubay shahrida bo'lib o'tgan COP28 sammitida davlatimiz rahbari bu borada konstruktiv takliflar ilgari surish bilan bir qatorda mintaqamizdagi tahlikali ekologik holatga o'xtalgan edi.

Iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyoda, ayniqsa, jiddiy sezilayotgan, mintaqada havo harorati oshishi jahondagi o'rtacha ko'rsatkichdan ikki barobar ko'pligi, tuproq yemirilishi jarayonlari 30 million aholi turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani, kuchli chang va qum bo'ronlari odatiy holga aylangani, ichimlik suv taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik yo'qolishi, qishloq xo'jaligi hosildorligi pasayishi kabi muammolar shular jumlasiga kiradi.

Mintaqamizda iqlim o'zgarishlariga sabab bo'luvchi eng asosiy omillardan biri — Orol dengizi fojiasi oqibatlarini yumshatish, uning qurigan tubini o'rmonlashtirish maqsadida hudud aholisi farovonligini yaxshilash bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Birgina misol. 2018-yil dekabr oyidan hozirgi kunga qadar Orolning qurigan tubida qariyb 2 million gektarga yaqin maydonga saksovul, cherkes, sho'r va qurg'oqchilikka chidamli boshqa o'simliklar urug'i sepildi va ko'chatlari ekildi. Ushbu hududlarda cho'l o'simliklaridan yashil qoplamalar — himoya o'rmonzorlari barpo etilishi Orolning ko'tarilayotgan qum, tup va chang zarrachalarining salbiy ta'sirini kamaytirish, qishloq xo'jaligi rivoji hamda aholi hayoti va faoliyatiga salbiy ta'sirini yanada yumshatish imkonini beradi.

Uchinchidan, keng ko'lami "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida har yili 200 million tup daraxt va buta ko'chati ekilishi ham shaharlarimiz, mahallalarimizga foyz

bag'ishlovchi yangi yashil hududlar barpo etilishi bilan birga, yurtimiz iqlimini mo'tadil saqlashga, pirovardida ona tabiatini asrash, aholi salomatligini yaxshilashga xizmat qilishi shubhasiz.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga e'tibor qaratilgan. "Yashil makon" loyihasini kengaytirish maqsadida yil yakuniga qadar yashil bog'lar sonini 444 taga yetkazish, 112 ta yirik sanoat korxonasi va unga tutash hududlarda 2,1 million tup ko'chatdan iborat "yashil belbog'" barpo etish vazifalari belgilangan.

To'rtinchidan, suv resurslari taqchilligining oldini olish borasida ham aniq chora-tadbirlar ko'rilmog'da. Jumladan, birgina 2023-yilda 77,3 ming gektar yerda tomchilatib, 25,4 ming gektar yomg'irlatib, 13 ming gektarda diskret sug'orish texnologiyalari joriy qilindi. 222,8 ming gektar qishloq xo'jaligi ekin maydonlari lazer uskunasi yordamida tekislandi. Shuningdek, joriy yil davlat byudjetidan qo'shimcha ajratilgan 500 milliard so'm mablag' doirasida 1,5 ming kilometr yirik kanallar betonlandi. Bu, o'z navbatida, mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish bilan birga, yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxi pasayishiga xizmat qiladi.

Beshinchidan, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi "yashil" iqtisodiyot, "yashil" energetika tamoyillarini amaliyotga joriy etish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda umumiy quvvati 24 ming 41 MVt bo'lgan 43 ta loyiha doirasida 8641 MVt quyosh va 15 ming 400 MVt shamol elektr stansiyalarini hamda jami quvvati 3165 MVt bo'lgan elektr energiyasini saqlash tizimlarini qurish loyihalari bo'yicha ish olib borilyapti.

Shu o'rinda Prezidentimiz ishtirokida 2023-yil 27-dekabr kuni 5 ta quyosh va 1 ta shamol elektr stansiyasini ishga tushirish va tarmoqqa ulashga bog'langan tantanali marosim bo'lib o'tganini eslash lozim.

Keyingi yillarda Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryo

1,6 gigavattli 9 ta quyosh va shamol elektr stansiyasi tarmoqqa ulandi hamda Andijon, Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida 183 megavattli 6 ta GES ishga tushirildi.

2030-yilga borib, O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini 25 gigavattga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Bu tabiiy resurslarni tejash orqali atmosferaga issiqxona gazlari chiqishining oldini olish imkonini beradi.

Eng muhimi, yaqin yillarda qayta tiklanadigan energiya manbalarini ulushi umumiy energiya balansida 40 foizga yetkazilishi aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining elektr energiyasiga ehtiyojini ta'minlashni yanada yaxshilashga imkoniyat yaratadi va mintaqada energetik barqarorlikni hamda Parij bitimi doirasida olgan majburiyatlarimiz ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi.

Oltinchidan, atmosfera havosi ifloslanishining oldini olishda ekologik toza transport vositalari sonini ko'paytirish, yoqilg'i sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada ham qator ishlar qilinmoqda. Toshkent shahrida elektrobuslar harakati yo'lga qo'yilgan bunga yaqqol misol.

Prezidentimizning 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni bilan Toshkent shahrida yul tashish uchun mo'ljallangan, ruxsat etilgan to'la vazni 10 tonnadan yuqori bo'lgan N2, N3, O4 toifaga kiruvchi avtotransport vositalarining harakati tig'iz vaqt oraliqlarida taqilinishi, 2030-yilga qadar Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar markazlarida "YEVRO-5" va undan yuqori standartlarga muvofiq bo'lmagan avtomashinalar ekspluatatsiyasi bosqichma-bosqich cheklanishi, Toshkent shahrida har o'yning bir ish kuni "Avtomobilsiz kun" sifatida belgilangan ham atmosfera havosi musaffoligini ta'minlashda muhim rol o'ynashi shubhasiz.

Yettinchidan, global iqlim o'zgarishlari sharoitida o'ziga xos, noyob, qimmatli tabiiy obyektlarni va majmualarni, o'simlik hamda hayvonlarning irdisi fondini saqlab qolish, ularni qayta tiklash, ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatishda muhofaza etiladigan tabiiy hududlari ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega asosiy tabiiy manbalardan biri hisoblanadi.

Mazkur tabiiy hududlar maydonini kengaytirish va rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni mamlakatimiz umumiy hududining 14,08 foizini tashkil etmoqda.

Hozirgi kunda 7 ta davlat qo'riqxonasi, 1 ta majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonasi, 12 ta tabiiy bog'i, 1 ta milliy bog', 2 ta biosfera rezervati, 12 ta buyurtma qo'riqxonasi, 1 ta jayron maxsus pitomnigi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimiga kiradi.

Mamlakatimiz bioxilma-xilligi o'ziga xos rang-barang va noyob hayvonot, o'simlik dunyosiga ega. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan hayvonlar (umurtqali) turlarining 83 foizi va o'simlik turlarining 89 foizi qamrab olingan.

Bir so'z bilan aytganda, global tuzdagi ekologik muammolarni yengishda ekologik innovatsiyalarni joriy qilish, ekologik toza, energiyasamarador va resurstejamkor loyihalarni amalga oshirish, "yashil" iqtisodiyotni amaliyotga tabiiy etish, mamlakatimizning ekologik xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash, iqlim o'zgarishlariga moslashish imkonini berish bilan birga iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Yangicha yondashuvlar

Quyong kam oziqlanadi, tez ko'payadi, kam joy egallaydi. Shuning uchun quyongchilik oilaviy biznesga asos bo'ladigan soha. Bir juft quyong 5-6 haftadan so'ng bir necha bosh ko'payishi va go'shti, terisi, yungi katta daromad keltirishini inobatga olsak, bu tarmoqning qanchalik foydali ekanini anglab olish qiyin emas.



Farg'ona viloyatida quyongchilikni rivojlantirish, yangi tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga e'tibor kundan kunga ortib bormoqda.

Qo'shtepa tumanidagi "Vodiy naslli quyonglari" agrofirma bu borada o'ziga xos tajribaga ega.

Uy sharoitida mahalliy quyonglarni parvarishlashdan boshlab tadbirkor faoliyat ko'lamini yanada kengaytiradi. Solijonobod massivida tashkil etilgan quyongchilik tarmog'i bugunga kelib, yirik ishlab chiqarish markaziga aylandi. Bankdan olingan imtiyozli kreditga 8

ta zamonaviy quyongxona qurildi, Rossiyadan mahalliy iqlim sharoitimizga mos 2500 bosh ona quyong olib kelindi.

— Quyonglar tez rivojlanishi, serpushtligi bilan ajralib turadi, — deydi agrofirma rahbari Nuriddin Iminov. — Bitta quyondan bir yilda 50-60 tagacha bola olish mumkin. Bu 70-80 kilo go'sht, 50 dona teri degan gap. Go'sht uchun boqiladigan quyonglar 90 kunda yetilib, o'rta 2-2,5 kilo tosh bosadi. O'tgan yili 20 ming boshdan ortiq quyong, 5 tonnadan ortiq go'sht yetishtirildi. Bir yilda 200 ming bosh quyong boqish va 250 tonnadan ortiq parhezbo

go'sht ishlab chiqarish imkoniyatiga egamiz. Hozirning o'zida supermarketlar tomonidan kuniga ikki tonnagacha go'shtga buyurtmalar bor. Bu miqdorni yanada ko'paytirish hamda

narxini arzonlashtirish choralarini ko'ryapmiz.

Xo'jalikda sun'iy usulda naslli quyong olish tarmoqlari ishga tushirildi. Bu aholi va fermer xo'jaliklariga ham tirik quyong yetkazib berish

imkonini bermog'da. Bitta quyong bir yilda tabiiy uy sharoitida besh marta, har safar besh-oltitadan bolalaydi. Bu o'tiztaga ko'paydi, degani.

— Ishni 10 bosh quyong boqishdan boshlaganmiz, — deydi agrofirma a'zosi Ikromjon Saidov. — Hozirga kelib, ular soni 60 dan oshdi. Yil oxiriga qadar 150 boshga yetadi. Kilosini 50 ming so'mdan sotaymiz. Bu mavsum davomida 50-60 million so'mdan ortiq daromad olish imkonini beradi.

Quyongchilik rivojida ozuqa bazasining o'ri muhim. Bu maqsadlar uchun 13 gektar ekin maydoni ajratib berildi, omixta yem tayyorlash yo'lga qo'yildi. Natijada mahsulot tannarxi arzonlashdi, sifati yaxshilanib, qo'shimcha ish o'rnlari yaratildi.

— Bu jonivorlar go'shti juda yumshoq, xushta'm, oqsilarga boy, — deydi viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazi gastroenterologi va diyetologi Samadjon Pirmatov. — Yosh bolalar, keksalar va bemorlarga parhez taom sifatida tanovul qilish tavsiya etiladi. Yengil



Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Ta'lim taraqqiyoti

Dunyo iqtisodiyotida to'rtinchi sanoat inqilobi rivojlanishi davrida inson kapitali birinchi o'ringa chiqdi. Mamlakatimiz aholisi 37 million nafarga yetdi, buning yarmidan ortig'ini yoshlar tashkil etadi. Demak, bu kapitalning asosiy qismi kuch-quvvatga to'la yoshlardir. Davlatimiz yoshlarga alohida e'tibor qaratib, keng imkoniyatlar yaratib berayotgan bir davrda ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish, kelajakni yetuk va sifatli kadrlar bilan ta'minlash borasida oliy ta'lim muassasalari zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi.

Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

ILMIY SALOHIIYAT OSHAYOTGANI sohaga qaratilayotgan e'tibor samarasidir



Nodir HAYDAROV,
tibbiyot fanlari doktori,
professor

Tibbiyot sohasida sifatli kadrlar tayyorlash — ustuvor vazifa

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida xalqimizning erkin va farovon, qudratli yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash asosiy maqsad etib belgilangan. Zero, bu yoshlarning kelajakdagi o'rni, darajasi, jamiyat rivojiga qo'shadigan hissasini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

Strategiyada oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida bir qancha vazifalar belgilangan: yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, 30 ta oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish, “Top-500”ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo'shma ta'lim dasturi asosida “ikki diplomli tizim”ni joriy etish, 10 ta oliyog'ni dunyoning eng nufuzli “Top-1000” oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish.

Bugungi global tendensiyalarga ko'ra, dunyo mamlakatlari, jumladan, yurtimizda ham tibbiyotga, xususan, sohada malakali xodimlar tayyorlashga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Toshkent davlat stomatologiya instituti jamoasi ham mamlakatimizdagi islohotlarning muhim ishtirokchisiga aylangan. Maqsadli ko'rsatkichlarga erishish eng ustuvor vazifa etib belgilangan.

Mazkur yo'nalishda institut jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalari, ilmfan maktablari bilan yaqin hamkorlik o'rnatmoqda. O'quv jarayoniga xalqaro

ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallar keng joriy etilmoqda. O'quv-pedagogik faoliyatga, mahorat darslariga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlar faol jalb qilinayapti. Ularning bazasida tizimli asosda oliy ta'lim muassasalari magistrant, yosh mutaxassis va ilmiy xodimlari uchun amaliyot o'tash, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tashkil etilmoqda.

2022-yili akademik va moliyaviy mustaqillik berilgan institut salohiyati, ta'lim sifati, moddiy-texnik bazasini yil sayin oshirib borishga mustahkam zamin yaratdi.

Nufuzli reytinglardagi ko'rsatkichlar

Toshkent davlat stomatologiya institutida zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash, keng ko'lami islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish bugungi kunning qat'iy vazifasiga aylandi.

Jahon talablari darajasida kadrlar tayyorlash uchun yurtimiz oliy ta'lim muassasalari xalqaro reytinglarga kirishga, nufuzli xalqaro OTMLar bilan hamkorlik o'rnatishga intilmoqda. Natijalar esa quyovonarli.

Ushbu yo'nalishda Toshkent davlat stomatologiya instituti “QS Asia University Rankings — 2024” reytingida e'tirof etildi. Mazkur reytingga Osiyo mintaqasidagi 31 davlatdan jami 739 ta oliy ta'lim muassasasi kiritildi. Reyting universitet va institutlar

oliyog'hlarga ko'proq jalb qilish imkonini bersa, ikkinchidan, ta'lim muassasalarining jahon ta'lim maydonida nufuzli universitetlar bilan raqobat olib borishiga yo'l ochadi.

Institut zamonaviy talablariga muvofiq kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini oshirish, ilmiy tadqiqot izlanishlari olib borishni takomillashtirish yo'lida 21 davlatning 124 dan

Ushbu yo'nalishda institutimiz xalqaro e'tirof etilgan ISO sertifikatiga va Jahon tibbiy ta'lim federatsiyasi — WFME akkreditatsiyasiga ega bo'ldi. 2023-yilda esa THE reytingda dunyoning kuchli 1000 + OTM orasida “Reporter” maqomini qo'lga kiritdi.

So'nggi 3 yilda oliyog'hdan 18 nafar fan doktori (DSc) va 57 nafar falsafa doktori



ortiq ta'lim muassasasi, ilmiy markazlari va ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlik o'rnatgan.

Xalqaro maydonda ham o'z mavqeiga ega. Bu yerda birinchilardan bo'lib 3D texnologiyalarga asoslangan simulyatsion markaz tashkil etildi. Finlyandiya universiteti bilan hamkorlikda ilmiy-amaliy jurnal chop

(PhD) tayyorlandi. Pedagoglarimizning 11 nafari jahonning nufuzli 1000 talikdagi OTMLarida PhD yoki DSc ilmiy darajasini oldi.

Professor-o'qituvchilarni tomonidan 14 ta patent, 77 ta EHM dasturi va 55 ta mualliflik guvohnomasi olingan. Bundan tashqari, 2 mingdan ortiq ilmiy maqola chop etildi.

Talabalar hamisha yetakchi

Pedagoglar va talabalarga yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli oliy ta'lim muassasalari jahon standartlari asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga olib chiqishga muvaffaq bo'lmoqda. Bu esa tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida oldida salmoqli vazifalar turganini anglatadi. Bugun talabalar maqomiga erishgan yigit-qizlarni har tomonlama yetuk kadrlar etib tayyorlash orqali yurtoshlarimizning salomatligini tiklashga hissa qo'shish eng ustuvor vazifamizdir.

Institutda 5700 dan ziyod talaba kasb sirlarini o'rganmoqda. Jarayon 6 ta ta'lim yo'nalishi va 3 ta qo'shma ta'lim dasturi orqali amalga oshiriladi. Talabalarimiz orasida Prezident davlat stipendiyasining 6 nafar, nomdor davlat stipendiyalarining 11 nafar sohibi, respublika va xalqaro tanlovlarning 100



dan ortiq g'olibi borligi qalbimizni hamisha g'urur va iftixor tuyg'ulariga to'ldiradi. Bundan tashqari, 6 talabamiz yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalarida magistraturani, 3 nafari doktoranturani muvaffaqiyatli bitirishga muvaffaq bo'ldi. Bu kabi yutuqlar yoshlarning iqtidorli ekanini bilgan birga, professor-o'qituvchilarning yoshlar ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor bilan yondashayotganining ham belgisidir.

Institutimizda an'anaviy o'tkazilayotgan “Yosh olimlar kuni” respublika ilmiy-amaliy anjumani talabalarimizni yagona maqsad atrofida birlashtirish, fikr va bilim almashishi, o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishi uchun muhim qadam bo'lmoqda. 2024-yildagi anjumanimiz dasturida stomatologiya yo'nalishida 62, davolash ishi yo'nalishida 51, fundamental va tibbiy-biologik fanlar yo'nalishida 75 yosh olim ma'ruzalari o'rindi. Talabalarimizning mazkur anjumanga qiziqishi yildan yilga ortib borayotgani bu yo'nalishdagi keng ko'lami islohotlar natijasidir.

Natijani 80 foizga yetkazish maqsad qilingan

Davlat ilmiy texnik dasturlari doirasida institutning yetakchi olimlari rahbarligida “3D skaner texnologiyalaridan foydalanib yuz-jag' patologiyali chaqaloqlarning milliy ma'lumotlar bazasini yaratish”, “Tishlarni tiklash paytida kompozitsion materialni isitish uchun yangi stomatologik qurilma yaratish”, “Respublikamizda stomatologik kasalliklar tarqalishining geografik kartasini yaratish” mavzularida qator ilmiy tadqiqot loyihalari bajarilgan. Bundan tashqari, 2024-yil uchun yana 19 ta ilmiy tadqiqot loyihasi bo'yicha asoslovchi hujjatlar tanlovda ishtirok etish uchun taqdim etilgan.

Institutimiz ilmiy jamoasi tomonidan joriy yilda oliy va professional ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilandi. 30 ta PhD va 15 ta DSc himoyasi orqali institut ilmiy

salohiyatini 71,2 foizdan 80 foizga ko'tarish va “Scopus” bazasida chop etiladigan maqolalar sonini 80 taga yetkazishni rejalashtirdik. Shu bilan birga, umumiy miqdori 2 milliard so'm bo'lgan 4 ta (3 ta amaliy, 1 ta innovatsion) davlat granti natijasida 10 ta ilmiy daraja (2 ta DSc, 8 ta PhD), 3 ta patent (1 ta FAP, 2 ta IAP), 20 ta mualliflik guvohnomasi (DGU, BGU, IP) olishni maqsad qilganmiz.

Oliy ta'lim muassasasining Stomatologiya va yuz-jag' jarrohligi ilmiy-amaliy markazi orqali 4 ta ilmiy mahsulot va patentni tijoratlashtirishdan keladigan mablag'ni 1,3 milliard so'mga yetkazib, 12 ta xo'jalik shartnomasiga xizmat ko'rsatishdan tushadigan daromadni 128 million so'mdan 0,8 milliard so'mgacha ko'paytiramiz.

Respublikaning yetakchi ilmiy-amaliy markazlari bilan hamkorlikda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Xususan, Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bilan buyrak va jigar transplantologiyasi, bronxoskopiya usulida bronxlarini stentlash, bariatrik xirurgiya samarali usullari bo'yicha Yevropa va MDH davlatlarining yetakchi tibbiyot markazlari tajribasi o'rganilib, ularni klinik protokollarga kiritish tavsiyalari ishlab chiqildi.

Respublika ixtisoslashtirilgan allergologiya va klinik immunologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bilan bolalar va kattalarda immunologik patologiyalarni yangi usulda davolash, kasalliklarni aniqlashda zamonaviy immunologik testlardan foydalanilmoqda. Bioorganik kimyo instituti bilan xirurgik stomatologiya amaliyotida mahalliy kollagen asosli biomaterial uchun tajriba namunasi ishlab chiqildi va eksperimental sinovlar o'tkazildi.

Institutimizdagi bu kabi ishlaridan ko'zlangan maqsad talabalarimiz sifatli ta'lim olishi, ilmfan sohasida yangi kashfiyotlar yaratilishi, ilg'or xorijiy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar bilan raqobatlasha oladigan kadrlar tayyorlash uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishdir.

Mulohaza

Boshlanishi 1-betda

EL SIYLAGAN ESHIKDA O'TIRMAS

O'QITUVCHIGA EHTIROM DOIM TRENDDA BO'LISHI KERAK

El siylagan eshikda o'tirmas, deydi dono xalqimiz. Elning nazari tushgan odam yurt manfaatini yoki xalq g'ami yo'lidagi ma'naviy qahramondir. Jamiyatning tub o'zanini shu kabi qahramonlar yaratib, kelajakka yo'naltiradi. Bunday qahramonlar qatorida, shubhasiz, o'qituvchilar ham bor.

Insonning jamiyatdagi muhim a'zo bo'lib shakllanishida ta'lim va o'qituvchilarning o'rni katta. Ilgari muallimlarni ko'cha-ko'ya yoxud to'y-tomoshada ko'rib qolsak, uzoqdan aylanib o'tardik. Ular tutib olib urmasdi yoki nimaga bu yerda yuribsan, deb o'shirmasdi. Ammo kimimizda bir hayiqish bor edi. Chunki ota-onamizning ham o'qituvchilarga hurmati boshqacha edi.

Bugungi islohotlar tufayli o'qituvchining mavqei tiklandi. Bir vaqtlar shunday hollar bo'ldiki, aksariyat muallimlar ishini tashlab, o'zga yurtlarga borib, qora qozonini qaynatdi. Ular jamiyatning eng quyi bo'g'iga tushib qoldi. Maoshi kun ko'rishga yetsa-da, bolalarini o'qitish va boshqa xarajatlarga yetmasdi. Ya'ni oliy ma'lumotli bo'latirib, farzandini oliy ta'limda o'qitishga qiyinalardi. Bugun esa muallimga e'tibor qaytdi. Pedagoglar yana ziyoli qatlamning asosiy bo'g'iga aylandi.

Tarozining bir pallasini qancha ko'tarmaylik, eski zamoning kasri hali to'liq ketganicha yo'q. Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda bir o'qituvchining kaltaklangani aks etgan lavha tarqaldi. Afuski, bu kabi holatlar halihamon uchrab turibdi.



Bugun o'qituvchilarga munosabatlardan xulosa chiqarsak, tobora avj olayotgan madaniyatsizlik, fikriy biqizlik, yengil shakl-shamoyilga ergashib borayotgan olomonga yutqazayotganimiz ayon bo'ladi.

Ko'pchilik demokratiya soyasiga yashirilib, muallimning o'quvchiga qo'l ko'tarishi ortidan sug'dacha borayotgani, hatto ishdan bo'shatirayotgani ham bor gap. Avvalo, hech kimning bolalarga qo'l ko'tarishga

haqqi yo'q. Bunday kimsa qonuniy jazoga munosib.

Yaqinda universitetni bitirib, maktabda ish boshlagan tanishim bilan subhatlashib qoldim. Undan “O'qituvchilar o'quvchilarni urmayaptimi?” deb so'radim. Oldiniga u menga bir oz qarab turib, “Misol uchun, men yuqori sinflarga dars o'taman. Ba'zi sinflarda ilgama chanoq o'quvchilar ko'p. Ba'zilarida esa vaqtni o'quvchilarni tinchlantirish bilan o'tkazib yuboramiz”, dedi.

Bugun muallimni masxaralab, kulayotgan avlodning bolalarini shu ustozlar tarbiya qilmaydimi? Ertaga o'zlarini jamiyat masxaraboziga aylantib qolmasligiga kim kafolat beradi? Yoki ular yetishtirgan bolalar ham xuddi shunday qiladimi? Bu og'riqli savol, albatta.

Ustoz otangdek ulug', degan gap bor. Ko'pchilik bu gapni eshitib malollanadi. Otaga hurmat yuqori, ammo insonning hayot yo'larida o'z o'rni topishda ustozlar hisssasi katta. Ya'ni hech kim xo'jak'o'rsinga jamiyat a'zosi bo'lib qolmaydi.

Tarbiya ham bir kasb. Agar bir oz beparvoqlik yoxud e'tiborsizlik qilsangiz, kasrini butun umr tortib yurasiz. Katta hayotning darsini olganlarning avlodi yoki u tengilar qaysi idrok bilan o'qituvchiga

qo'l ko'tarmoqda? Axir rivojlanishning bosh bo'g'ini ilm emasmi? Ilm sohiblarining ahvoli bu holatda bo'lsa, ko'zlangan umumilliy g'oyalari, millatning ma'naviy qiyofasi darz ketmaydimi?

Har bir muammoning yechimi uni muvozanatda ushlab turgan qonun-qoidalaridir. Xo'sh, rivojlangan mamlakatlarda o'qituvchining manfaatini qanday himoya qilindi? Yoxud bu kabi holatlarning oldini olish uchun nimalarga e'tibor qaratiladi? Quyidagi faktlarga e'tibor bering.

AQSHda yomon baho olgan o'quvchilar sinfdan keyingi yilga qoldirib yuboriladi. Maktabdagi jiddiy qoidabuzarliklar bilan politsiya va sud tizimi shug'ullanadi.

Yaponiyada kech qolish, bo'yanish yoki formasiz darsga kirish jismoniy mehnat yoki darra bilan jazolanadi.

Germaniyada o'quvchi darsdan qochsa, jarayonga voyaga yetmaganlar bilan ishlash xizmati aralashadi. Agar ta'lim intizomi buzilsa, maktab ma'muriyati darhol politsiyaga xabar beradi. Bir oyda 3 kundan ortiq sababsiz dars qoldirganlarga 1000-2500 yevro jarima solinadi.

Janubiy Koreyada o'qituvchi itoatsiz o'quvchilarni jismoniy jazolash huquqiga ega. Masalan, kaftga kaltak bilan urishi mumkin.

Buning uchun ota-ona hech qanday e'tiroz bildira olmaydi.

Buyuk Britaniyada dars payti o'quvchilarni maktab hududidan chiqarish taqiqlanadi. Shu bilan birga, farzandini maktabdan olib ketgani uchun ota-ona jarimaga tortilishi mumkin. Agar jarima 28 kunda to'lanmasa, jinoyiy javobgarlikka tortiladi.

Fransiyada bir oyda to'rt martadan ko'p dars qoldirgan o'quvchining ota-onasiga 150 dollargacha jarima solinishi mumkin. Agar o'qishni qoldirish bolaning ta'limiga ta'sir qilayotgan bo'lsa, ota-ona 2 yillik qamoq jazosi va 30 ming dollardan ortiq miqdordagi jarimaga tortiladi.

O'qituvchilar manfaatini himoya qilish borasida ta'lim tizimida ko'plab islohotlar qilinmoqda. Ammo eng katta islohot insonning o'zini o'zi tarbiyalashidir. Shaxs o'zini isloq qila olmasa, undan keyingi avlodlar tarbiyasi jilovi qo'ldan chiqadi.

Inson, eng avvalo, fikr ko'lamiga ega bo'lishi, qilayotgan ishi jamiyatning qiyofasini shakllantirishi tayin. Illat ketar, odat ketmas degan hikmat tagzamidida ham bugungi befarqlik yoki o'qituvchiga salbiy munosabatning illatdan odat tusiga aylanasligi zarurligi nazarda tutilgan. Jamiyatdagi bu kabi illatlar payi o'z vaqtida qirilmasa, tomir otib ketishi hech gap emas.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Jadidlar ruhi

Jahon adabiyotida

O'XSHASHI YO'Q ASAR

yoxud «O'tkan kunlar»da millat axloqi

(Birinchi maqola)

Adabiyot mohiyatini umuminsoniyatga daxldor, biroq milliy shaklda namoyon bo'ladi. O'zida millatning ruhiyatini ifodalaydi. Milliylikdan xoli tuyg'uning ta'siri bo'lmaganidek, milliy ruhdan mosuvo tafakkur ham qanotsiz qushga o'xshaydi. Shunga ko'ra, milliylik — adabiyotning asosiy mezonidir. Ta'bir joiz bo'lsa, jahon badiiy-estetik tafakkuri ko'rigida o'zbek adabiyotini ajratib ko'rsatuvchi bosh xususiyat, o'zgalardan farqini namoyon etadigan asosiy belgi milliy ruhdir.



Nurboy JABBOROV, filologiya fanlari doktori, professor

Milliy ruh ifoda etilgan asarning umum-bashariy ahamiyatini zinhor pasaytirmaydi, aksincha, jahon adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lish imkonini yanada oshiradi. Shunga ko'ra, dunyodagi har bir xalq adabiyotining eng sara namunalarini milliy ruh ifodasi nuqtayi nazaridan ilmiy tahlil etilishi zarur. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar muayyan millat adabiy-estetik tafakkurining boshqa hech bir xalq adabiyotida uchramaydigan o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, adabiy jarayonga tatbiq etish va rivojlantirish imkonini beradi. XX asr o'zbek adabiyotida ana shu mezoniga javob beradigan asarlardan biri, hatto birinchisi Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romanidir.

«O'tkan kunlar»ni ingliz tiliga tarjima qilgan Mark Riz e'tiroficha, «...asarning darajasini baholash mezonini madaniyati, tili yoki u yaratilgan davrdan qat'i nazar, buyuk yozuvchi o'z fikrlarini butun bashariyatga, har birimizga yetkazib bera olishidir. Shuning uchun ham bu jahon adabiyoti deyiladi... Qodiriy ana shu marrani bosib o'ta oldi. Aytishim mumkinki, «O'tkan kunlar» juda boy va tugal roman bo'lib, unda G'arb o'quvchisi uchun yangilik bo'lgan turfa xil an'analari tasviri, terminlar va tarixiy davrga xos hikoyalari juda ko'p. Bu esa ayni paytda yuz berayotgan jarayon — O'zbekistonni dunyoga yaqinroq tanitish borasida ham katta ahamiyatga ega».

Asarning amerikalik tarjimon e'tiborini tortgan asosiy jihati milliy ruhning betakror talqini ekanidir. Chunki «O'tkan kunlar» aynan millatning o'ziga xos hayot tarzini, betakror urf-odumlarini, axloqini, orzu va armonlarini ifoda etgani jihatidan dunyo adabiyoti namoyandalari e'tirofini qozonayotir. Tarjimonning «O'tkan kunlar» juda boy va tugal roman bo'lib, unda G'arb o'quvchisi uchun yangilik bo'lgan turfa xil an'analari tasviri berilganini ta'kidlashi zamirida ham ana shu haqiqat mujassam.

Milliy ruh betakror ifodalangan romanning ingliz tiliga tarjimasini kitob holida nashr etilgach, Prezidentimizga maktub yo'llagan Mark Riz mana bunday yozadi: «...men ayni paytda ingliz tiliga tarjima qilib tugatgan Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani Markaziy Osiyo va jahon adabiyotida o'xshashi yo'q asardir... O'n besh yil mobaynidagi ish jarayonida nafaqat adib tiliga xos nozik jihatlarini, balki 1938-yilda uning qatag'onga uchrashi va o'limiga sabab bo'lgan, asarlariga jo etilgan chinakam milliy ruhni (barcha ta'kid bizniki — N.J.) ilg'ashga muvaffaq bo'ldim».

Savol tug'iladi: muayyan ijodkor asarlarida milliy ruh qanday tamoyillar asosida namoyon bo'ladi? Milliy ruhning badiiy tasviri qaysi estetik mezonlarga tayanadi? Bizningcha, ularni quyidagicha tasnif etish mumkin: millat ruhini mujassam etgan o'ziga xos urf-odumlar, an'analari, qadriyatlar, millatning orzulari, armonlari talqini; millatning o'z-o'ziga tanqidiy ruhda qaray olish salohiyati ifodasi hamda milliy shaxsiyatga xos sobit e'tiqodning poetik suvratlanishi. Birinchisi — millatning axloqi, ikkinchisi — irodasi, uchinchisi — e'tiqodini tajassum etadi va bu uchlik yaxlit holda milliy ruhni tashkil qiladi. Milliy ruhning asosi sanalgan bu uch xususiyat bir asar doirasida poetik sintezlanuvi, istisnosiz, fenomenal poetik hodisa, deb baholalanishga loyiq. Aksar asarlarda bu xususiyatlardan biri yoki ikkitasi jam bo'lishi kuzatiladi. Shunga ko'ra, milliy adabiyotimiz tarixidagi kamdan kam asar ana shu adabiy-estetik mezonga to'liq javob berishi mumkin. Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar» romani shunday noyob asarlardan.

Ruhsiz vujud tirik deb hisoblanmagani singari milliy ruhdan ayri holda millat ham, milliy adabiyot ham mavjud bo'la olmaydi. Milliy ruhning asosini millat axloqi tashkil etadi. O'rta asrlar adibi Al-Johiz «Fazoili atrok» («Turkiylar fazilatlarini») asarida ajdollarimizning nomusli, yuragi toza, yovuz o'y va botil fikrdan xoli insonlar bo'lganini; jangda ham, tinch payti ham hiyla bilmaganini, fursatdan foydalanmaganini; o'zi ham, so'zi ham to'g'ri ekanini; bironing moliga xiyonat qilish, ikkiyuzlamachilik, kibr-u havo, kattalarga hurmatsizlik ko'rsatish ularning tasavvuriga ham sig'maganini ta'kidlaydi. Bu hol Yaratganing o'zi millatimizni komil axloq bilan siyolaganiga dalil emasmi?! «O'tkan kunlar»da millatga xos shu singari fazilatlar ularning ziddi bo'lgan xususiyatlar bilan o'zaro qarama-qarshilikda mukammal badiiy talqin etilganini kuzatiladi.

«O'tkan kunlar»ning bosh qahramoni Otabek — oriya, rostgo'y, halol, jasoratli va millatparvar shaxs. Buning ustiga u zamona ahvolidan xabardor, ochiq fikrli yigit. Ushbu fazilatlar unga qondan, aslida, o'zi mansub millatning tiyatidan o'tgan va oilaviy muhit ta'sirida kamolga yetgan. Romandagi «Xotini bilangina emas, umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo'lsa bo'lsin uzoq so'zlashib o'turmaydigan» Yusufbek hoji o'zbek oilasidagi otaning mukammal timsoli. Oila a'zolarining unga munosabati shundan kelib chiqadi. Qodiriyning yozishicha, «Otabekmi, onasimi, Hasanalimi, ishqilib uy ichidan birortasining so'zlarini va yo kengashlarini bo'lsa, kelib hojining yuziga

Har qanday masalada yetti o'lchab bir kesadigan, shu bois, oilada ham, jamiyatda ham munosib mavqega ega Yusufbek hoji va yolg'iz o'g'li Otabekning o'zaro munosabati romanda milliy axloqning obrazdagi yorqin suvratlanishiga misol bo'la oladi. Har ikkalasi ham vatanparvar, millatparvar, el g'amini o'z g'amini deb his etadiganlardir. Shu sababli negahon qipchoq qirg'iniga guvoh bo'lgan Otabek qattiq iztirob chekadi. Yurt so'rab turgan amaldor otasini bu qabohatning ishtirokchilaridan deb gumon qilib, bir alami ming bo'ladi. Ota-o'g'il o'rtasidagi ochiq muloqotgina bu masalaga oydinlik kiritadi. «O'zing o'ylab ko'r, o'g'lim, — deydi ozor chekkan ota, — o'z qo'limiz bilan o'zimizniki kesishdan mamlakat uchun qanday foyda bor? Bosharti men bu vahshatka ishtirok qilgan bo'lsam, qaysi aql va qanday manfaatni kuzatib qo'shilishga bo'laman? Agarda namon yurt so'ramoqqa va shu vosita bilan boylik ortirmoqqa orzum bo'lsa, boshqalardan ham ko'ra o'z o'g'limga — senga ma'lum bo'lmasmidi? Nega har bir narsaga yetgan aqling shunga qolg'anda oqsaydirmi? Nega yong'an yuragimga sen ham zahar sochasan?».

Bunday samimiy ko'ngil izhori, tabiiyki, Otabekka ta'sir etmay qolmaydi. U «o'z hujumining haqsiz» ekaniga amin bo'ladi. O'zaro oshkora suhbat ota-o'g'il o'rtasidagi tushunmovchilikka barham beradi. Romanda har bir masala talqinida qahramonlar ruhiyatining milliy axloq qirralarini namoyon etadigan ana shunday teran tahlilni kuzatish mumkin. Umuman, odamlarning o'zaro muloqotida ham, oilaviy masalalar yoki jamiyat



qaramasdan so'zlay beradilar; maqsad aytib bitkandan so'ng sekingina ko'tarilib uning yuziga qaraydilar». Oilaboshining yuziga tik qaramaslik — bugun kamyob hodisaga aylangan bo'lsa ham ilgari millat axloqining asosi bo'lgan. O'ladaqgi muhitni sog'lom saqlashda favqulodda ahamiyatga ega bo'lgan o'zaro hurmatning bu darajaga ko'tarilishida bosh omil, shubhasiz, Yusufbek hojining Xudo bergan tabiatidir: «Hoji bir necha vaqt so'zlag'uchini o'z og'ziga tikiltirib o'turmag'anda so'ng, agar ma'qul tushsa «xo'b» deydir, gapka tushunmagan bo'lsa «xo'sh» deydir, noma'qul bo'lsa «durust emas» deydir va juda ham o'ziga noma'qul gap bo'lsa bir iljayib qo'yish bilan kifoyalantib, mundan boshqa so'z aytmaydirm va aytisa ham uch-to'rt kalimadan nariga oshmaydirm. Uy ichi uning bu fe'luga juda yaxshi tushunganliklaridan ko'pincha bir og'iz javob olish bilan kifoyalantadirlar».

miqyosidagi hodisalarda ham fikri ochiq izhor etish, «Fazoili atrok» muallifining ta'bir bilan aytganda, o'zi ham, so'zi ham to'g'ri bo'lgan millatimizning qanday fazilatlaridir. Bunday samimiyat har qanday muammo muolajasining kafolatidir. Aslida, o'zbek tabiatini shunday bo'lgan. Hazrat Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn»da: «...turk sortidin tezfahtroq va baland idroqroq va xilqati sofroq va pokroq», deya ta'riflagani ham buning isbotidir. Tasavvur qiling, Yusufbek hoji sinchkovlik bilan o'g'lining ruhiyatidagi o'zgarish sababini anglamaganida yoki Otabek o'zgina jizzakilik bilan bo'lsa-da, otasiga yuragini yozmaganda, bu chigillik kattaroq gina-kuduratga, bora-bora esa ota-bola munosabatlarining izdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkin edi. Adibning mahorati shundaki, u asar qahramoni ruhiyatiga har doim to'g'ri tashxis qo'yadi. So'zni zargarona qo'laydi. Oz so'zga ko'p ma'no



Zaynab bir muncha vaqt o'ylanib qoldi. — Qars ikki qo'ldan chiqadir, — dedi Zaynab, — men yaxshi bo'lg'anim bilan opam yomon bo'lsa, hozirgi bergan va dandan nima foyda bo'lsin...

— Boshqa gaplarni ko'nglinga keltirma, qizim. Farzandlik kelin bilan sening bizga hech farqlaring yo'q, ikkavlaring ham bolamizning qo'shog'i — bolamizsiz!

Bunday murakkab vaziyatda Yusufbek hoji eng to'g'ri yo'l tanlaydi. Aslida ham o'zbek otasi, farzandlarining saodatini, oilasining xotirjamligini o'ylagan odam o'ziga yo'l tutishi mumkin emas edi. Biroq shu o'rinda Zaynabning badgumonligiga, kelajakda undan yomonlik chiqishiga ishora borligini payqash qiyin emas. Uning «men yaxshi bo'lg'anim bilan opam yomon bo'lsa...» degan so'zlarini bu fikri tasdiqlaydi. Zaynab xarakteriga xos, milliy axloqga zid bo'lgan xususiyat oxir-oxibatda qancha taqdirlangan fojiasiga sabab bo'ladi.

Endi romandan milliy axloqning qaynatkelin munosabatlari timsolidagi betakror ifodasiga birgina misol: «Kumush uyalib zo'rg'agina salom berdi va Yusufbek hojining yaqiniga a kelib bo'yin egdi. Hoji qo'li bilan Kumushning yelkasiga qoqib suydi va Kumushning manglayiga tegizib olgan o'z qo'lini o'pdi».

— Bizning Marg'ilonda ham shunday kelimimiz bor ekan-ku, biz bilmay yurg'an ekanimiz-da, — deb tevaragiga qarab kulindi va qo'lini duog'a ochdi».

Bu o'rinda ikki jihatga e'tibor qaratmoq zarurati bor. Birinchisi — adib «Marg'ilonda ham» deganda birgina «ham» yuklamasini qo'llash orqali Yusufbek hojining millatimizning asl tiyatiga xos yuksak adolatga ishora qiladi. Iqtibos matndagi «ham» yuklamasi zamirida «Toshkentda ham» degan ma'no yashiringanini payqash qiyin emas. Bu bilan hoji Kumushga izzat ko'rsatish barobarida Zaynabning ham hurmatini joyiga qo'yadi. Ushbu misol romanda hatto yordamchi so'z turkumiga tegishli birgina yuklamaga ham ortiqcha qo'llanmagani, aksincha, katta ma'no tashishi haqidagi muhim xulosaga olib keladi. Bu Qodiriyning so'zga e'tibori, so'zga nisbatan mas'uliyati, san'atkorlik, so'zni his etish darajasi nechog'liq baland bo'lganiga yana bir dalildir.

Ikkinchi jihat: Yusufbek hoji Kumushning peshonasiga tekkan o'z qo'lini o'pishidir. Bu chinakam milliy urf, tobora unutilib qarayotgan udum. Qadim-qadimdan otalar o'z qizlariga, kelinlariga mehriini shu tarzda namoyon etgan: ularning peshonasidan bevosita bo'sa olmay, ana shu peshonani silagan o'z qo'lini o'pgan.

Abdulla Qodiriy chin ma'nodan san'atkor yozuvchi. Adibning boshqa asarlari singari «O'tkan kunlar»da ham birorta ortiqcha detal, noo'rin qo'llangan so'z yoki tasviri uchratish mahol. So'z qo'llash mahorati haqida fikr yuritilgan ekan, ijodkor adabiy-estetik qarashining asosini tashkil etuvchi mana bu e'tirofi, ayniqsa, diqqatga sazovor: «Yozuvchilikda bir qonun bor: hammadan ilgari ma'no, undan so'ng shu ma'noni ifoda qilish uchun so'z qurish, so'zning emas, san'atkorona, ya'ni shundog' so'zki, aytmoqchi bo'lgan fikringizning ifodasi uchungina maxsus yaratilgan bo'lib, yasama bo'lmasin. Mana shu shartni bajarib, bu jihatdan ta'min etilgach, boshqa masalalarga o'tishga haq olgan bo'lasan...».

Umuman, romandagi yirik yoki epizodik obrazlar qatorida kichik poetik detal yoki lavha, har bir so'z yoki birikma tahlili buyuk adibning asarda asosiy e'tiborni milliy axloqning badiiy talqini masalasiga qaratganini isbotlaydi. Bu masalani yanada batafsil va chuqur o'rganish adabiyotshunoslik oldida turgan galdagi vazifalardandir.

yuklay biladi. O'quvchi tuyg'ulari va shuuriga kuchliroq ta'sir ko'rsatadigan quyma so'z va iboralardan foydalanadi. Masalan, Yusufbek hoji tilidan aytilgan mana bu so'zlar bugun ham xalq orasida ko'p takrorlanadi: «Nega har bir narsaga yetgan aqling shunga qolg'anda oqsaydirmi?». Qanday holdan munosabati bilan aytilmasin, bu ibora tinglovchi ruhiyatiga, kayfiyatiga ta'sir qilmay qolmaydi.

Romanda yana bir qalits vaziyatda — Otabekni Zaynabga uylantirish masalasi ko'tarilganda milliy axloq talqini o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi: «O'zbek oyim kelib kirgandan so'ng Yusufbek hoji bir necha vaqt o'ylab qoldi... Anchagina so'zsiz o'tlurg'andan so'ng hoji muloymona so'z ochdi: — O'g'lim, hali sen eshitdingmi-yo'qmi, haytovur biz sening ustingdan bir ish qilib qo'ydiq...».

Otabek, ma'lumki, ularning «qilib qo'ygan yoki qilmoqchi bo'lg'an ishlari» albatta bilardi. Shundoq ham bo'lsa bilmaganga solindi: — Aqllik kishilarning o'g'ullari ustidan qilgan ishlari albatta noma'qul bo'lmas, — dedi.

Hoji o'g'lining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi». Ushbu vaziyatni qalits deb ataganimiz sababi, agar oilaviy munosabatlar qat'iy axloqiy mezoniga tayanmagan bo'lsa, o'zaro hurmat-izzat joyiga ko'ymilmasa, ana shu o'rinda oila poydevori darz ketishi ehtimoldan xoli emasdir. Bir-birini tushunish o'miga dahanaki jang yuz berishi ham mumkin edi. Otabekning so'zlarini bunday vaziyatda aqli o'g'ildan kutiladigan eng oqilona javob. Unda nafaqat ota-ona xohishiga rizolik, shuning barobarida e'tiroz ham mujassam. Biroq bu e'tiroz benihoya madaniy tarzda, donishmand otani ham o'ylantiradigan, kerak bo'lsa, noqulay vaziyatga solib qo'yadigan shaklda izhor etilmog'ida. Yusufbek hojining «yerga qarashi va nima deb javob qilishni bilmay qolishi» sababi shunda.

Romandagi bu tasvirda Hazrat Alisher Navoiy ta'bir bilan aytganda, roman suyetining ana shu o'mida «turkning muloymonati tab'... ortug'lig'i» aniq badiiy tasvirlangan. Suyukli Kumushi bilan turmush qurgan baxtiyor Otabekni yana uylantirdilar — nima uchun? Kimga kerak edi shuncha mojaro? Zarurimmi saodatmand oshiq-ma'shuq turmushiga zahar solmoq? Lozimmi baxtli sevgi qissasining iztirobli yakun topmog'iga sabab bo'lmoq? Buning uchun kim aybdor? Orzu-havas ko'yidagi ota-onami? Yolg'iz qizidan uzoqda bo'lishni, Toshkentga uzatishni istamay, Marg'ilonda yashashini xohlagan Mirzakarim qudidor bilan Oftob oyimmi? Muhabbatidan o'zga aybi bo'lmagan Kumushmi yoki uylangan, oilali Otabekka turmushga chiqqan Zaynabmi? Shu va shu kabi savollar kimlarni o'ylantirmagan deysiz? Bu boradagi munozaralar hali-hanuz davom etayotir. Toki fikrlaydigan odamlar bor ekan, «O'tkan kunlar»

mutolaasidan halovat topadigan kitobxon mavjud ekan, bu singari bahslar intihosiga yetmasligi ayon.

Bizningcha, bu savollarga javobni muammoning ildizidan — milliy axloq talqinidan qidirishi zarur. Otabekning Marg'ilondan uylangan, adib ta'bir bilan aytganda, «...otasi uchun uncha rizosizlikka mujib bo'lmasa ham, ammo uning o'g'ili to'yisidan boshlab, Toshkand qizlarini ost-ust qilib, u «buning qizi yaxshi bo'lsa ham, uy-joylari yaramas ekan; buning uy-joylari tuzik bo'lsa ham, qizi ko'rksiz ekan; buning qizi-da, uy-joylari-da tuzik, biroq zoti past ekan» deb qiz, quda, uy-joy, nasl va nasab tekshirib yurg'uchi O'zbek oyimning Otabekni uylantirib, buning orqasidan ko'radurgan orzu-havas, to'y-u tomoshalarini sharta kesib qo'ygan va u uylanishga nima deyishi va qanday qarashi albatta ma'lum edi».

Ayon bo'lganidek, Otabekning uylanishi Yusufbek hojida jiddiy e'tiroz uyg'otmagan bo'lsa ham O'zbek oyim uchun kutilmaganda hol edi. Zero, «uncha-muncha to'y-u azalarga «kavshim ko'chada qolgan emas», deb bormaydigan», o'rda xonimlari uchun ham «onaxon» maqomida bo'lgan, «o'z uyida o'tlurg'anida ham ustidagi atlas ko'nyak bilan adras mursakni, oq shohi dakana bilan qahrabo tasbihni qo'ymaydigan» O'zbek oyim o'g'lining o'zboshimchaligini — «qoshliq, ko'zlik bir andi» bilan turmush qurganini kechirishi mahol edi. Qolaversa, Otabekning Kumushga uylanishida o'zbek milliy axloqning negizlaridan sanalgan, har bir farzand qat'iy amal qilishi shart bo'lgan bir udumga rioya etilmagan — bu ish o'tana ruxsatisiz, ularning oq fothasini olmay bajarilgan edi. Holbuki, «og'ma» O'zbek oyim ham Kumushni ko'rgach, yoqirib qoladi. Otabek ota-ona rizosi bilan uylanganda, ehtimol, bu muhabbat qissasining xotimasi o'ziga bo'lmoqchi ham mumkin edi. Romandagi O'zbek oyim obrazida haqiqat fikr yuritir ekan, akademik Matyoqub O'shjonov mana bunday yozgan edi: «Qoida-qonunlarni, urf-odatlarni to'la va mahkam tutadigan o'zbek onasining mantiq portreti aniq va ravshan chizilgan! Bundan ham aniq chizish mumkinmi?».

O'zbek milliy axloqi aybni o'zagan emas, o'zidan qidirmoqchi taqozo etadi. Xalqimizning bunga dalolat qiluvchi mashhur maqoli ham bor. «O'tkan kunlar» muallifi Zaynab obrazini tasvirlar ekan, unda ana shu fazilat yetishmasligiga ishora qiladi. Boshqacha aytganda, muallif milliy axloqning ziddini tasvirlash orqali ham bu fazilatning mavjud bo'lmasligi nainki muayyan shaxsni, hatto oila va jamiyatni ham inqirozga olib kelishi muqarrar ekanini obrazli suvratlantiradi. Jumladan, hoji Zaynabga Kumush bilan egachisigildek ahl bo'lishi zarurligini uqtirgan lavhaga e'tibor berilg:

— Egachi-singil bo'lib ketarsiz-a? — deb takror so'radi qayin ota. — Bilmadim... — Nega tag'in bilmay qolding?